

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
XIToySHUNOSLIK FAKULTETI
XIToy TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

Shoqodirov Shoazim Shoxayitjon o'g'li

**XIToy TILI GRAMMATIK TERMINOLOGIYASI SHAKLLANISHI VA
TARAQQIYOTI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

5120100-filologiya va tillarni o'qitish (xitoy tili)

Ilmiy rahbar: "Xitoy tili va
adabiyoti" kafedrasi katta o'qituvchisi,
(PhD) Mustafayeva S.T



TOSHKENT-2018

MUNDARIJA

KIRISH.....	1
I BOB. XIToy TILI GRAMMATIK TERMINOLOGIYASINING SHAKILLANISHI	1
1.1 Qadimgi Xitoy tilida morfologik terminlar	2
1.2 Xitoy tili sintaksisiga xos terminologiya.....	3
II BOB. G‘ARB GRAMMATIKASINING XIToy TILI GRAMMATIK TERMINOLOGIYASIGA TA‘SIRI	4
2.1 Ma Jianzhong grammatik terminologiyasi	5
2.2 Baihuaga asoslangan ilk grammatik asarlar terminologiyasi	6
XULOSA	7
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	10

KIRISH

“Hozirgi paytda xorijiy tillarni o‘rganish va o‘rgatishga katta ahamiyat berilmoqda. Jahon hamjamiyatidan o‘ziga munosib o‘rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlida o‘z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo‘qdir”¹.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng, XXR O‘zbekiston mustaqilligini 1991-yil 27-dekabr tan olib, 1992- yil 2-yanvardan boshlab o‘zaro diplomatik aloqalar o‘rnatiladi. Ikki tomonlama hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari 1995-yilning 6-mayida Pekinda O‘zbekiston elchixonasida ikkitomonlama hamkorlik loyihalarining imzolanishi mamlakatlar o‘rtasida savdo-iqtisodiy aloqalar rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Bugungi nurafshon kunda muhtaram Prezidentimiz boshchiligida Respublikamizning har bir sohalarida rivojlanish tobora yuksalib borayotganiga o‘zimiz guvohmiz. O‘zbekiston Mustaqillikka erishgan vaqtlardan oq juda ko‘plab mamlakatlar bilan o‘zaro do‘stlik aloqalarini o‘rnatgan. Ular ichida Xitoy bilan aloqalar do‘stlik, hamkorlik va sheriklik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnoma, strategik sheriklik o‘rnatish to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiya hamda ikki tomonlama strategic hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va rivojlantirish haqidagi qo‘shma deklaratsiya ruhida barcha sohalarda jadal rivojlanmoqda. Xitoy mamlakatimizaning savdo-iqtisodiy va moliyaviy hamkorlari orasida yetakchi o‘rinni egallaydi. 2011-yilda ta‘sis etilgan O‘zbekiston va xitoy hukumatlararo hamkorlik qo‘mitasi savdo-iqtisodiy, moliyaviy, sarmoyaviy, energetika, neft-gaz transport va ilmiy -tehnikaviy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston va Xitoy moliyaviy sohada eng ko‘p qulaylik yaratish tartibi amal qilmoqda. Joriy yilning yanvar-may oylarida bu ko‘rsatkich 2,2 mlrd AQSH

1. ¹ Karimov I.A. “Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch” - Toshkent, 2010. B.10

dollarini tashkil etdi. O'zbekistonda Xitoy va O'zbekiston shtirokida tuzilgan 482 qo'shma korxonalar faoliyat yuritmoqda, ularning 74 tasi sof Xitoy kapital asosida. Yurtimizda Xitoyning 70 dan ziyod kompaniyasi vakolatxonasi ishlab turibdi.

Mamlakatimiz Xitoy Davlat Taraqqiyot Banki va Xitoy Eksim Banki bilan ham faol hamkorlik qilmoqda. Xitoy Davlat taraqqiyot Bank energetika., transport telekommunikatsiya, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa yo'nalishlardagi umumiy qiymati 5.4 mlrd dollardan ziyod turli loyihalarda ishtirok etmoqda.

Shuni ham aytib o'tish joizki, 2013-yil 7-sentyabrda Xi Jinping tomonidan "Buyuk Ipak Yo'li" iqtisodiy tasma-sining joriy qilinishi natijasida O'zbekiston orqali Xitoy va Yaqin Sharq mamlakatlari bilan bog'lash, Qozog'iston orqali Yevropa Ittifoqi bilan bog'lanishini ko'zda tutadi hamda yangi transport korridorlarini tashkil va qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning taklifiga binoan Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Xi Jinping 21-iyun kuni davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi.

Islom Karimov va Xi Jinpingning tor doiradagi suhbatida mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikning bugungi holati va uni yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi, tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan fikr almashildi.

O'zbek va xitoy xalqlari azaldan o'zaro savdo-sotiq qilgan, bir-birining madaniyatini boyitgan. Bugungi kunda O'zbekiston va Xitoy munosabatlari strategik sheriklik darajasiga ko'tarilgan. Mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlik siyosat, iqtisodiyot, savdo, sanoat, qurilish, ilm-fan, ta'lim, madaniyat kabi barcha sohalarni qamrab olgan. Bu aloqalar strategik sheriklik o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya, do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma, ikki tomonlama strategik hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va rivojlantirish haqidagi qo'shma deklaratsiya kabi qator hujjatlar asosida izchil taraqqiy etmoqda.

Ikki davlatning xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar bo'yicha pozitsiya va yondashuvlari o'xshash yoki yaqindir. Bu mamlakatlarimizning o'zaro

va ko‘p tomonlama aloqalarida muhim o‘rin tutmoqda. O‘zbekiston va Xitoy xalqaro maydonda bir-birini qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. BMT, ShHT singari xalqaro tuzilmalar doirasidagi hamkorlik kengayib bormoqda.

Mamlakatlarimiz o‘rtasida savdo-sotiq sohasida eng ko‘p qulaylik yaratish tartibi joriy qilingan. Savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish borasida hukumatlararo majlislar muntazam o‘tkazib kelinmoqda. 2011-yilda ta‘sis etilgan O‘zbekiston – Xitoy hukumatlararo hamkorlik qo‘mitasi qo‘shma loyihalarni ishlab chiqish, erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishda muhim rol o‘ynamoqda.

Markaziy Osiyo – Xitoy gaz quvurining to‘rtta tarmog‘i ham mamlakatimiz orqali o‘tishi yoqilg‘i-energetika sohasidagi ulkan salohiyat va o‘zaro manfaatdorlikdan dalolat beradi. Xitoy Milliy neft-gaz korporatsiyasi (CNPC) mamlakatimizdagi uglevodorod konlarini qidirish va qazish ishlarida faol ishtirok etmoqda. Muborak gaz-kimyó majmuasida tabiiy gazni chuqur qayta ishlash bo‘yicha hamkorlikda ish olib borilmoqda.

Mamlakatlarimiz o‘rtasida madaniyat, fan, ta‘lim, turizm sohalaridagi hamkorlik ham izchil rivojlanmoqda. “O‘zbekiston – Xitoy” hamda “Xitoy Xalq Respublikasi – Markaziy Osiyo mamlakatlari” do‘stlik jamiyatlari bu boradagi aloqalarni mustahkamlashda muhim omil bo‘lmoqda.

Fan-texnika muassasalari o‘rtasida ilmiy hamkorlik, oliy o‘quv yurtlari orasida talabalar almashuvi kengaymoqda. Xitoyda o‘zbek tili, O‘zbekistonda xitoy tili o‘rgatilmogda. Toshkent va Samarqandda Konfutsiy instituti tashkil etilgan. Xitoy millatlar markaziy universiteti va Pekin xorijiy tillar universitetida o‘zbek tilini o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan. Shanxay universiteti huzuridagi ShHT Jamoat diplomatiyasi ilmiy tadqiqot instituti negizida O‘zbekiston tadqiqotlari va ta‘lim almashuvlari markazi ochilgan.

Mamlakatlarimizda o‘zaro madaniy muloqotni mustahkamlashga qaratilgan kino kunlari, badiiy ko‘rgazmalar, festivallar o‘tkazilmogda. Xitoylik san‘atkorlar “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalida muntazam qatnashib kelmoqda.

2015-yilgi festivalda bosh sovrin – Gran-prini Xitoyning “Jiangsu Women’s Orchestra” guruhi qo‘lga kiritdi.

Xitoy O‘zbekistonning eng yirik iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlaridan. Ikki davlat o‘rtasida savdo aloqalari borasida eng ko‘p qulaylik yaratish tartibi joriy qilingan. Mamlakatlarimiz o‘rtasida imzolangan savdo, investitsiyalarni o‘zaro rag‘batlantirish va himoya qilish, daromadlarning ikki tomonlama soliqqa tortilishiga yo‘l qo‘ymaslik hamda daromad soliqlarini to‘lashdan bosh tortishni bartaraf qilishga oid bitimlar savdo-iqtisodiy aloqalar rivojiga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston – Xitoy hamkorlik aloqalari Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi. Xususan, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning taklifiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 11-13-may kunlari davlat tashrifi bilan Xitoy Xalq Respublikasida bo‘ldi va ikki davlat o‘rtasida qator sohalardagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga turtki bo‘la oladigan qator xujjatlar imzolandi. O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasida hamkorlik va do‘stlik aloqalarining har jabhada taraqqiy etishi tabiiyki, xitoy tilini mukammal biladigan yetuk xitoyshunos kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshiradi.

Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi. Xitoy tilini xorijiy til sifatida o‘rganishda grammatik bilimlarning o‘rni beqiyos. Til grammatikasini o‘rganish esa avvalo grammatik terminologiya bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarga tayanadi. Xitoy tili grammatik terminologiyasining shakllanishi va taraqqiyoti yuzasidan amalga oshirilgan ish Xitoyda grammatika sohasida yaratilgan asarlar terminologiyasini o‘rganish va ularni davriy ketma-ketlikda tavsiflash hamda tasniflashi bilan ilmiy ahamiyat kasb etsa, ishda keltirilgan faktlar, tahlillar va xulosalar xitoy tili va unga bog‘liq qator maxsus kurslarni o‘qitish va o‘rganishdagi amaliy ahamiyatiga ko‘ra dolzarb hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning manbalari. Xitoy tili terminologiyasi tadqiqiga bag‘ishlangan ko‘plab adabiyotlar, nomzodlik ishlari va doktorlik tadqiqotlari amalga oshirilgan. Xususan, o‘zbek xitoyshunosligida filologiya fanlari nomzodi,

dosent A.A. Karimovning “Некоторые теоритические аспекты образования финансовой терминологии китайского языка”, “Xitoy tili grammatik birliklari” ilmiy ishlari, S.A. Nosirovaning “Hozirgi zamon xitoy tili diplomatic terminlarining leksik-semantik va struktur tahlili” mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasi, S.T. Mustafayevaning “Xitoy tilshunoslik terminologiyasi” mavzuidagi falsafa doktori dissertatsiyasi, L.A. Sultanova “Xitoy tili leksikologiyasi” nomli o‘quv qo‘llanmasi, rus xitoyshunoslaridan O.P. Frolovaning “Словообразование в терминологической лексике” asarlari ishda murojaat qilingan asosiy manbalardan sanaladi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari. Xitoy tili grammatik terminologiyasining rivojlanish bosqichlari, davriy xususiyatlarini o‘rganishdan iborat.

1. xitoy tilshunosligida shakllangan ilk grammatik terminlarni aniqlash;
2. Xitoyda yaratilgan grammatik asarlar asosida soha terminlarini davrlashtirish;
3. grammatik terminlarning xususiyatlari, tarixiy, tadrijiy rivojlanish bosqichlarini organish;

Tadqiqot ob‘ekti. sifatida xitoy tiliga tilshunosligi grammatik terminologiyasi.

Tadqiqot predmeti. Grammatik terminlarining davriy xususiyatlari.

Tadqiqot yangiligi. Xitoy tili grammatik terminologiyasining shakllanish va tarqqiyot bosqichlari davriy ketma-ketlikda o‘rganildi.

Tadqiqot metodlari. Oldinga qo‘yilgan vazifalarni hal etish uchun to‘plangan materiallar hozirgi zamon tilshunoslik fanida keng qo‘llanilayotgan tavsifiy, tahliliy, miqdoriy, chog‘ishtirish metodlari yordamida tahlil etildi.

Malakaviy ishning tuzilishi va hajmi. Ish kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

Kirishda malakaviy ish mavzusining lig asoslab berilgan, ishning yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiq etish usullari, maqsad va vazifalari ochib berilgan.

Birinchi bob. Xitoy tili grammatik terminologiyasining shakllanishi bu bobda malakaviy ish mavzuyimizning tarixdan qanday shakllangani tilning tarixiga oid bo‘lib keladi. 1.1 Qadimgi Xitoy tilida morfologik terminlar haqida manba keltiriladi 1.2 Xitoy tili sintaksisiga xos ilk terminologiya haqida manba keltirilgan 2-bobda esa G‘arb grammatikasining xitoy tili grammatik terminologiyasiga ta’siri bu bobda xitoy tili tilshunosligiga g‘arb grammatikasiga ta’siri keltirilgan 2.1 Baihuaga asoslangan ilk grammatik asarlar terminologiyasi qismida biz baihuada yozilgan ilk grammatikalar terminologiyasini tahlilga tortdik.. 2.2 Ma Jianzhong grammatik terminologiyasi qismida Ma Jianzhong grammatik terminologiya haqida keltirgan manbasidan keltirilgan. Ishning xulosa qismida bitiruv malakaviy ish yuzasidan kelib chiqqan asosiy xulosalarni bayon qildik.

I BOB. XITOIY TILI GRAMMATIK TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI

Mazkur bobda Xitoy tili grammatikasi terminologiyasi haqida soʻz yuritiladi grammatik terminologiyasi shakllanishining ilk bosqichi haqida va grammatik terminologiya boʻlimlarining tarixi ayniqsa, qadimgi xitoy tilida qanday boʻlganligi haqida toʻxtalib oʻtiladi.

1.1 Qadimgi Xitoy tilida morfologik terminlar

Xitoy tili tarixi 3000 ming yildan koʻproq davrni qamrab oladi. Ammo xitoy tili tarixi haqidagi manbalarning kamligi va davrlashtirishdagi qiyinchiliklar sababli hozirgi paytgacha umumqabul qilingan xitoy tili tarixini tasnifi mavjud emas. Baʼzi xitoyshunos olimlar bu borada izlanishlar olib borgan boʻlib, ular tomonidan taklif etilgan davrlashtirish shartli boʻlib, qadimdan bizgacha yetib kelganlari ham adabiy yodgorliklar asosida amalga oshirilgan.

Xitoyshunoslikda A. Maspero² taklif etgan davrlarga boʻlish modeli dunyo xitoyshunosligida yaxshi maʼlum. U xitoy tili tarixini 3 katta davrga boʻlgan, har bir davrni oʻz oʻrnida ilk va soʻnggiga boʻlgan. Bu davrlashtirish kasriy koʻrinishga ega: 1)arxaik (qadimgi) xitoy tili: a) ilk arxaik (Xan davrigacha, yaʼni Miloddan avval III asrgacha boʻlgan davrni oʻz ichiga oladi); b) soʻnggi arxaik (milodiy III asrigacha); 2)oʻrta xitoy tili: a) ilk oʻrta (milodiy IVdan VIII-IX asrgacha); b) soʻnggi (XII asrgacha boʻlgan davr); 3)zamonaviy: a) ilk zamonaviy (XII-XVII asrlar); b) soʻnggi (XVIII- XX asrlar).

Yana bir muqobil koʻrinishdagi davrlashtirish Xitoy tilshunos olimi Van Li³ tomonidan «汉语史稿»⁴ (hànyǔ shǐgǎo) kitobida taklif etilgan. U xitoy tili tarixini 4 davrga boʻlgan:

1) 上古期 (shàngǔqī) – ilk yozma manbalarda keltirilgan qadimgi

² Anri Maspero (1883-1945) – fransuz xitoyshunos olimi, Xindixitoy tillari va tarixi boʻyicha mutaxassis. yirik asari: «Qadimgi Xitoy» (1927). Ushbu kitob qadimgi Xitoyning m.a. XII-IIIasrlari tarixi va madaniyatini oʻz ichiga oladi

³ Vang Li (王力) (1900-1986) Xitoy tilshunos olimi, 60 ga yaqin lingvistik asar muallifi.

⁴ “Xitoy tili tarixi tasnifi” Pekin (北京) 1958.

xitoy tili, III asrgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Asosiy xususiyati: bo‘lishsiz va so‘roq gaplarda olmosh to‘ldiruvchisi fe’ldan oldin joylashishi; shuningdek kirish ohangining (入声⁵ rùshēng) ikki turi mavjud bo‘lganligi. Milodan avval. III va IV asrlar o‘tish davrlari hisoblanadi;

2) 中古期 (zhōnggǔqī) – o‘rta davr xitoy tili, m.a.IV-milodiy XII asrlarni qamrab oladi. Asosiy xususiyati 是 (shì) bog‘lamasi; olib chiqilgan to‘ldiruvchili natija konstruksiyasi; 儿 (ér), 子 (zǐ), 了 (le), 着 (zhe) suffikslari (qo‘shimchalari); va pasayuvchi ohangning (去声 qùshēng)⁶ paydo bo‘lishi. O‘tish davri – XII-XIII asrlar;⁷

3) O‘rta davr: IVdan XII-XIV asrlargacha;

4) Zamonaviy bosqich.

Qadimgi xitoy tili ikkiga bo‘linadi:

1) Qadimgi og‘zaki til – 雅言 (yǎyán);

2) Qadimgi yozma til - 文言 (wényán), 白话 (báihuà)

Yayan – qadimgi davrlarda shunday atalgan qonun va me‘yorlarga solingan og‘zaki til hisoblanadi. Yayan Miloddan avval. VII-VI asridan to milodiy III asrigacha (hammasi bo‘lib 10 asr atrofida)

muomalada bo‘lgan. Kong Ingda (孔颖达)ning «Chjengven» kitobida quyidagicha yoziladi:

“雅言，正言也。”⁸(Yǎyán, zhèng yán yě) – Ya tili Xitoyda ishlatilgan eng dastlabki og‘zaki til, zamonaviy putunxuaga to‘g‘ri

keladi. Tarixiy manbalarda yozilishicha, ya tili Chjou sulolasi davri mahalliy

⁵ Kirish ohangi (入声) 4 ohangdan biri. Zamonaviy xitoy tili ba‘zi dialektlarida (粤语-yue, 吴语-u, 闽南语 -min) xaligacha saqlanib qolgan, ammo putunxua (xitoy og‘zaki adabiy tili)da allaqachon muomaladan chiqqan.

⁶ Zamonaviy xitoy tilidagi 4-ohangga to‘g‘ri keladi.

⁶ Saodat Nosirova (2012) “Xitoy tili tarixi” 1-mavzu 6-bet

⁸ Sixay (辞海), Shanxay, 2008, 1-jild 509-b

dialekt asosida yuzaga kelgan.⁹

Konfutsiy¹⁰ Lu davlatida o‘z maktabini ochgan va ilm o‘rgatgan. Uning 3000 nafar shogirdi Xitoyning turli tomonlaridan kelishgan edi. Darslarni Konfutsiy ya tilida olib borar edi. Gaplarimiz dalili sifatida quyidagi misolni keltiramiz:

“子所雅言，《诗》、《书》、执礼，皆雅言也。” (Zǐ suǒ yǎyán, 《Shī》、《Shū》、zhǐlǐ, jiē yǎyán yě) – Konfutsiy ma’ruzalarni yayan tilida o‘qirdi, qolganlar ham yayan tilida gapirardi; «Shijing», «Shujing»¹¹ ham shu tilda yozilgan.

Qadimiy xitoy tili – “zamonaviy xitoy tili”ning ota-bobosi bo‘lib, 1919 yil 4 may harakatidan¹² oldingi tarixiy jarayondagi xan millatining umummilliy tili hisoblanadi.

Bu til zamonaviy xitoy tili bilan umumiy til asosiga ega, lug‘atshunoslik va grammatika tuzilishi ham o‘zaro moslashadi; biroq leksik tizim va og‘zaki til nuqtai nazaridan zamonaviy xitoy tilidan katta farq qiladi. Qadimgi xitoy tili odatda kadimgi yozma tilni ifodalaydi, “**venyan**” va “**qadimgi bayxua**”¹³ni o‘z ichiga oladi. U avvalgi davrlar tillari xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirib, gohida o‘ta murakkab g‘oyalar yozma bayonining turli til usullarini ishlab chiqqan.

Venyan – Miloddan avval. VII-VI asrdan to 1919 yil 4 may harakatigacha (hammasi bo‘lib 27 asr atrofida) ishlatilgan. Chin (er.avv III asr), Xan (er. avv.

⁹ Chjou sulalasi (m.a. XI asr – m.a. 221 yil). Poytaxti – Fengao shahri (丰镐) (hozirgi Sian shahrining shimoli-g‘arbi)

¹⁰ Konfutsiy - 孔子 (m.a.551-479) – Xitoy buyuk mutafakkir olimi, donishmandi, siyosatshunos, pedagog. “Rujya” falsafiy maktabi hamda konfutsiychilik ta’limotining asoschisi. Uning asosiy g‘oya va qarashlari “Lunyuy” (Mulohazalar va suxbatlar) asarida o‘z aksini topgan. (Sixay 2-jild 1176-b)

¹¹ Bu asarlar haqida to‘liqroq ma’lumot olish uchun mazkur ishning 23-betiga qarang

¹² 4 may harakati (五四运动) – Xitoy tarixida imperiyaga qarshi qaratilgan yirik qo‘zg‘olon harakati. 1919 yil 4 may Pekinda talabalar namoyishi bilan boshlangan. Bu harakat Xitoyda marksizm g‘oyasini tarqalishini tezlashtirdi.

¹³ Qadimgi bayxua – VII-VIII asrdan hozirgi paytga qadar (13 asr atrofida) muomalada bo‘lgan. Doimo venyan bilan kurashib kelgan: 5 asr passiv, 8 asr aktiv kurash olib borgan. Bayxuada asosan ommabop adabiyot asarlari yozilgan, ya’ni u oddiy xalq uchun mo‘ljallangan mazmungan oson, sodda, omma tushunadigan tildir. 1919 yil 4 may harakatidan keyin venyan o‘rnini bayxua egallagan. Bayxua – shimoliy dialekt asosida shakllangan bo‘lib, og‘zaki nutqqa yaqin bo‘lgan yozma tildir. 白话文 báihuàwén – “sodda tilde maqola yozmoq” ma’nosini anglatadi.

206-eramiz 220) sulolalari davrigacha og‘zaki nutqda ishlatilgan va bu sulolalardan keyin olimlar tomonidan shu til qofiyasida yozma shaklga keltirilgan tildir. Venyan Yayan (雅言)

asosida vujudga kelgan.

Bahor va Kuz (Chunchyu), Jang filuvchi podsholiklar (Chjango) ¹⁴ davrida qog‘oz hali kashf etilmagan, yozuv bambuk taxtachalar, ipak va boshqa buyumlarga aks ettirilgan. O‘sha paytlarda ham (hozirgidek) ipak juda qimmat bo‘lgan. Bambuk taxtachalariga esa ko‘p iyerogliflarni sig‘dirib bo‘lmasdi. Shuning uchun bir o‘ramga yanada ko‘proq ma‘lumotni sig‘dirish uchun, unchalik muhim bo‘lmagan qaydlarni o‘chirib tashlashga to‘g‘ri kelardi.

Aytish mumkinki, venyan dunyodagi eng qadimgi *ixchamlashtirilgan yozuv turidir*. Keyinchalik “qog‘ozdan” keng qo‘lamda foydalanish boshlangandan so‘ng, rasmiy xujjatlarni venyanda yozish odatiy tusga kirdi, bu esa o‘sha davr odamlarini venyanni yanada yaxshiroq o‘rganishiga turtki bo‘ldi. Buning ustiga venyanda qo‘lyozmalar yozish ancha tejamkor edi. ¹⁵

文 言 文 **wényánwén** **so‘zining leksik-semantik tahlili**. Bu

so‘zdagi birinchi 文 wén - “yozma tilda yozilgan maqola” ma’nosini

bildiradi. 言 yán – yozmoq, aks ettirmoq ma’nosini beradi. Oxirgi 文

wén – asar, maqola kabi ma’nolarni bildiradi.

文 言 文 – bu yozma tilda maqola yozmoq tarzida tarjima qilinadi.

Demak, 文言文– bu xitoy yozma adabiy tili.

Venyan og‘zaki til va yozuvning madaniyat, tarix bilan bog‘liqligini ham o‘zida aks ettiradi. Til ko‘pincha og‘zaki muloqot vositasi bo‘lgani uchun, real hayot

¹⁴ Sharqiy Chjou (M.a.771-221 yillar) davri ikkiga bo‘linadi: 春秋 (Chunsyu) va 战国 (Chjango)

¹⁵ Saodat Nosirova (2012) “Xitoy tili tarixi” 1-mavzu 8-bet

bilan chambarchas bog‘liq. Til hali madaniyat holatiga kirmagan ekan, u hayot an‘analarini davom ettirish vazifasini bajarolmaydi. Venyan esa allaqachon madaniyatga aylangan, desak adashmaymiz.¹⁶

Venyanni o‘rganish jarayonida bizda xato fikr paydo bo‘lishi mumkin: qadimgi odamlar so‘zlashganda ham xuddi shunday, ya‘ni venyan matnlarida yozilgandek muloqot qilishganmi?

Aslida qadimgi xitoylar o‘z fikrini ifoda etishganda, bu fikrning yozuvda aks ettirilgan shakli va talaffuz qilingan shakli bir-biridan katta farq qilgan. Masalan, biror odamdan ovqat yegani haqida so‘ralganda, og‘zaki tilda: “吃饭了吗?” chī fàn le ma? (“Ovqat edingmi?”) tarzida ifodalansa, xuddi shu savol yozma tilda (venyan): “饭否?” fàn fǒu? (“Ovqatlandingmi?”) ko‘rinishida bo‘lgan.¹⁷

Xitoyda qadimda yozilgan barcha asarlar yozma tilda bitilgan.

Shuning uchun hozirda qadimgi xitoy tili “文言文” deb ataladi.

Venyan xitoy madaniyatining durdonasi, ota-bobolar xitoy xalqiga qoldirgan beqiyos boylikdir. Xitoy ta‘lim tizimi bo‘yicha o‘quvchilar o‘rta maktabdan boshlab venyanni o‘rganishadi. Bu esa xitoy xalqining o‘z tarixi va madaniyatiga bo‘lgan katta hurmati va qiziqishidan dalolat beradi.¹⁷

Venyan juda rang-barang tildir. Xitoy an‘naviy madaniyatining asosiy qismi venyanda bitilgan. Bu esa 3000 yillik tarixni o‘z ichiga oladi.

Venyanni o‘rganishning ahamiyati. Venyan allaqachon muomaladan chiqqan, faqat yozuvda saqlanib qolgan, xolos. Ammo venyan yozuvi xali ham o‘rganiladi. Nima uchun?

Sababi esa venyanni bilish orqali Xitoy qadimgi va klassik davr badiiy yodgorliklarini haqiqiy ko‘rinishida mutoala qilish va ushbu manbalarning asl

¹⁶ Saodat Nosirova (2012) “Xitoy tili tarixi” 1-mavzu 8-bet

¹⁷ Saodat Nosirova (2012) “Xitoy tili tarixi” 1-mavzu “Xitoy tili tarixiy davrlarga bo‘linishi” 9-bet

qadr-qimmatini his etish mumkin bo‘ladi.

Venyan ham bilim hisoblanadi. Xitoy tilini aks ettirish, tasvirlash, uning ichki tuzilishi, xususiyatlari venyani o‘rgangan inson uchun yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Venyanda yozilgan matnlarni o‘qib mutola qilinganda xitoy tilining nafisligi, o‘ziga xosligi, Xitoy an‘nalari, madaniyati, tarixi his qilinadi.

Venyanni ichki tuzilishini o‘rganish orqali esa zamonaviy xitoy tilini yanada chuqurroq anglash, grammatik tuzilish va ba‘zi jumboqlar o‘z-o‘zidan yechimini topadi.¹⁸

Venyan xususiyatlari. Venyan matnlarini o‘qish jarayonida ilmning o‘zgacha sehrini his etish mumkin. Sababi, venyanda maksimal kam belgilar (iyerogliflar) orqali katta qo‘lamdagi tushunchalar aks ettirilgan. Zero ko‘rib chiqilganidek, u – dunyodagi eng dastlabki vujudga kelgan ixchamlashtirilgan yozuv turi.

Venyan: 不者，若属皆且为所虏。bù¹⁹ zhě, ruò shǔ jiē qiě wéi suǒ lǔ.²⁰

Bayxua: 不这样的话，你们这一班人都将被他们俘虏。Bú zhèyàng de huà, nǐmen zhè yì bān rén dōu jiāng bèi tāmen fúlǔ.

Tarjimasi: Agar shunday yo‘l tutmasangiz, barchangiz ularning quliga aylanasis.

Yuqoridagi ikki til matnini tahlil quydagicha. Fikrni yozuvda aks ettirish uchun venyanda 9 ta belgi ishlatilgan bo‘lib, gap ixcham va qisqaligi bilan farq qiladi. Bayxuada esa analogik g‘oyani ochib berish uchun 18 ta (ikki barobar ko‘proq!) belgi ishlatilgan.

Zero, tilda venyan matnlarini tarjimasi o‘ta murakkab jarayon hisoblanadi. Shuning uchun bir qator venyanda yozilgan manbalarda tarixiy matnga bayxuadagi

¹⁸ Saodat Nosirova (2012) “Xitoy tili tarixi” 1-mavzu “Xitoy tili tarixiy davrlarga bo‘linishi” 9-bet

¹⁹ 不 inkor so‘zi qadimgi xitoy tilida fōu tarzida talaffuz qilingan. Zamonaviy xitoy tilida bù tarzida o‘qiladi.

²⁰ «Tarixnoma.Syanyuy faoliyati bo‘limi»

sharh ilova qilinadi.

Qo‘yida venyanni zamonaviy tilga tarjima qilganda qaysi jihatlariga alohida e‘tibor qaratish lozimligi haqida fikr boradi.

- avval butun matnni ko‘zdan kechirib chiqish;
- asosiy g‘oyani tushunib olish;
- tartib bo‘yicha tarjimani boshlash;
- har bir gapni tarjima qilayotganimizda, u gapdan oldingi va keyingi gaplar mazmunini hisobga olgan holda tarjima qilish;
- ijodiy yondashish zarur, aks holda tarjima quruq va ma’nosiz chiqadi;
- odam, geografik nomlarni tarjimasi.

Zamonaviy Xitoyda qadimgi xitoy tili uslubidagi aforizm va shiorlar juda ommabop. Yuqorida Jinmen oroli qoyalaridan birida (XXR, Tayvan hududi) Chan Kay-shi ²¹ chaqirig‘i venyanda aks ettirilgan: "毋忘在莒" (Wú wàng zài Jǔ), "Yodingizdan chiqarmang, - (biz) Jyuy (shahri)damiz!"²².

1.2. Xitoy tili sintaksisiga xos ilk terminologiya

Tildagi so‘zlarning umumiy grammatik ma’no va vazifalariga ko‘ra ma’lum guruhlarga bo‘linishi **so‘z turkumlari** deb yuritiladi.

Qadimgi xitoy tilida ham so‘z turkumlari ikkiga bo‘lingan: mustaqil so‘z turkumlari (实词shící) va yordamchi so‘z turkumlari (虚词xūcí).

Xitoy tilida aniq bir (real) ma’no ifoda etuvchi so‘zlarga **mustaqil so‘z turkumlari** deyiladi. Qadimgi xitoy tilidagi mustaqil so‘z turkumlari 5 guruhga bo‘lingan:

²¹ 蒋介石 (Jiǎng Jièshí) Szyang Szeshi (1887–1975) – Xitoy qurolli kuchlari qo‘mondoni, generalissimus, mutafakkir davlat arbobi. 1925 yili Song Yatsen (孙逸仙 Sūn Yìxiān) o‘limidan keyin Gomindang partiyasiga boshchilik qilgan. Umrining oxirgi 26 yilini Tayvanda o‘tkazib, shu yerda vafot etgan.

²² www.wikipedia.org

1. Ot – 名词 mǐngcí
2. Fe'l – 动词 dòngcí
3. Sifat – 形容词 xíngróngcí
4. Son – 数量词 shùliàngcí
5. Olmosh – 代词 dàicí

Yordamchi soʻz turkumlari – yakka holda maʼno anglatmaydigan, gap boʻlagi boʻla olmaydigan, grammatik maʼnolarni ifodalashga xizmat qiladigan soʻzlardir. Ular mustaqil soʻzlar va ayrim gaplar orasidagi munosabatni anglatishga xizmat qiladi, soʻzga va gapning mazmuniga turli qoʻshimcha maʼnolar qoʻshadi.

Qadimgi xitoy tilidagi yordamchi soʻz turkumlari 6 guruhga boʻlingan.²³

1. Koʻmakchi – 介词 jiècí
2. Bogʻlovchi – 连词 liáncí
3. Yordamchi soʻzlar – 助词 zhùcí
4. Yuklama – 语气词 yǔqìcí
5. Undov soʻzlar – 叹词 tànací
6. Ravish – 副词 fùcí

Koʻrishimiz mumkinki, qadimgi xitoy tilida son va hisob soʻzlar bir turkumga kiritilgan. Zamonaviy xitoy tilida esa ular alohida soʻz turkumlari hisoblanadi. Ravish soʻz turkumi qadimgi xitoy tilida yordamchi soʻz turkumi boʻlgan, hozir esa mustaqil soʻz turkumiga aylangan.

Ot soʻz turkumi

Xitoy tilshunoslarining fikricha, inson, narsa-buyum, vaqt, joy nomini bildiruvchi soʻzlar turkumi **ot** deyiladi. Qadimgi xitoy tilidagi otlarga quyidagilar

²³ Saodat Nosirova (2012) “Xitoy tili tarixi” 6-mavzu Qadimgi xitoy tili mustaqil soʻz turkumlari “” 48-bet

misol bo‘la oladi:²⁴

孔子 kǒngzǐ – Konfutsiy;

孟子 mèngzǐ – Meng-zi;

民 mǐn – xalq;

人 rén – odam;

天下 tiānxià – Osmon osti (Xitoy);

君子 jūnzǐ – oliyjanob inson;

江 jiāng – Yanzi daryosi;

河 hé – Xuangxe daryosi;

东 dōng – Sharq;

南 nán – Janub;

西 xī – G‘arb;

北 běi – Shimol;

牛 niú – sigir;

羊 yáng – qo‘y;

车 chē – arava.

Qadimgi xitoy tilidagi ot so‘z turkumi grammatik vazifalari zamonaviy xitoy tili bilan deyarli o‘xshash. Gapda ega, to‘ldiruvchi, aniqlovchi bo‘lib kelgan. Zamonaviy xitoy tilidan farqli tomoni – ba’zida hol gap bo‘lagi vazifasini bajargan, fe’l o‘rnida qo‘llanilgan. Quyida ushbu hodisalarni tahlilini o‘tkazamiz:

I. Ot hol vazifasida Qadimgi xitoy tilida ot quyidagi o‘rinlarda hol bo‘lib kelgan:

²⁴ Saodat Nosirova (2012) “Xitoy tili tarixi” 6-mavzu Qadimgi xitoy tili mustaqil so‘z turkumlari “” 48-bet

(1) Qiyoslash ma'nosini bildirganda Ot orqali kimsa yoki narsa-buyumning ish-harakat belgisi, uslubi hamda holati tasvirlanadi. Bunda ot “像。 。 一样” xiàng ... yíyàng, “像。 。 。 似的” xiàng ... shìde (... -ga o'xshab) ma'nosini beradi.²⁵

«Lyaochjay g'aroyibotlari» “Bo'ri hikoyasi” bo'limida (聊斋志异•狼 Liáozhāi zhìyì • láng)²⁶ hikoya qilinishicha: “其一犬坐于前”. Qí yī quǎn zuò yú qián (Bo'ri go'yo it kabi tizzasida o'tirar edi).

Bu gapda 犬 quǎn (it) ot so'z turkumiga oid, gapda hol vazifasini bajargan. Qiyoslash ma'nosini bildirgan.

(1) Ish-harakatning uslubi, holatini bildirganda

«Tarixnoma» ning “Syangyuy tarjimai holi” (史记•项羽本纪 shǐjì•Xiàngyǔ běnjì) bo'limida yozilishicha:

“吴得兄事之” Wú dé xiōng shì zhī (Men unga xuddi akasi kabi g'amxo'rlik qilishim kerak).

Bu gapda “兄” (xiōng – aka) hol vazifasini bajargan ot bo'lib, “事” (shì – g'amxo'rlik qilmoq) fe'lining holatini bildirmoqda. “Akasidek g'amxo'rlik qilmoq” tarzida tarjima qilinadi.

(2) Jihoz va joy nomini bildirganda

«Yuygun tog'ni surdi» hikoyasida (愚公移山 Yúgōng yíshān): “用箕畚把土石运到渤海边上”. Yòng jībēn bǎ tǔ shí yùndào bóhǎi biān shang (U hokandozdan foydalanib toshlarni dengiz qirg'og'iga oborib tashladi).

“箕畚” (jībēn – xokandoz) oti hol bo'lib kelgan, ishlatilgan jihazni ifodalaydi. Gapda hol vazifasini bajargan.

Ot hol bo'lib keladigan bu holatda, qadimgi xitoy tilidan zamonaviy xitoy

²⁵ Saodat Nosirova (2012) “Xitoy tili tarixi” 6-mavzu Qadimgi xitoy tili mustaqil so'z turkumlari “” 49-bet

²⁶ Ching davri(1644-1911) Taniqli novellashunos yozuvchisi Pu Songlin(蒲松龄 Pú Sōnglíng 1640-1715) qalamiga mansub asar. Lyaochjay taxallusi ostida o'jod qilgan bu yozuvchi 400 dan ortiq novellalar yaratgan <<Lyaochjay g'aroyibotlari>> syujeti turli fantastic voqealarga lomo-lim.

tiliga tarjima qilganimizda eng yaxshisi otdan oldin “用” (yòng – foydalanmoq), “拿” (ná – olmoq) yoki “在” (zài - da, joylashmoq) kabi soʻzlarni qoʻshish kerak. Ot hol vazifasini bajarganda hech kanday alohida koʻrsatkich mavjud emas, asosiysi ikkala til maʼnosidan kelib chiqqan holda oʻrganishimiz lozim.

I. Otning feʼl oʻrnida kelishi. Qadimgi xitoy tilida koʻpgina otlar feʼl sifatida ishlatilib, gapda kesim vazifasini bajarishi mumkin boʻlgan. Ot feʼl vazifasini bajarganda, otning maʼnosi butunlay yoʻqolmaydi, balki qoʻshimcha maʼno qoʻshiladi.

«Zojuan» “Saoguy munozarasi” (左传·曹刿论战 zuǒzhuàn•Cáo guì lùnzhàn) boʻlimida: “齐人三鼓”. Qí rén sān gǔ (Chi askarlari uch marotaba doʻmbira chalishdi) . “鼓” (gǔ – doʻmbira) oti feʼl sifatida ishlatilgan, “doʻmbiraga urmoq” maʼnosini beradi, kesim vazifasini bajargan.²⁷

Otning qoʻllanilish usullari

- Ot feʼl oʻrnida kelganida, oʻzidan keyin toʻldiruvchini oladi.

Masalan:

1) «Tarixnoma» “Syangyuy tarjimai holi” boʻlimi (史记·项羽本纪 shǐjì• Xiàngyǔ běnji):

“先破秦入咸阳者王之”. Xiān pò qín rù xián yáng zhě wáng zhī (Avval Chin qoʻshiniga xujum qilib, Syanyangni bu yerga olib kelamiz, keyin esa uni taxtga oʻtqizamiz).

“王” (wáng – qirol): ot soʻz turkumiga kiradi, bu gapda “之” toʻldiruvchisidan oldin kelib, “qirol qilmoq, taxtga oʻtqizmoq” maʼnosini beradi. “王之” - “uni taxtga oʻtqizish” deb tarjima qilinadi.

- Ot feʼl maʼnosini bildirganda, oʻzidan keyin toʻldiruvchi olib, subʼektiv “hisoblamoq” maʼnosini bildiradi. Masalan:

²⁷ Saodat Nosirova “Xitoy tili tarixi”(2012) 6-mavzu 52-bet

«Syun-zi» «Fu» bo‘limida (荀子•赋 Xúnzǐ • fù):

“友风而子雨”. Yǒu fēng ér zǐ yǔ (Shimolni o‘z do‘stim, yomg‘irni esa farzandim deb bilaman).

“友” yǒu (do‘st) “子” zǐ (farzand) asli ot so‘z turkumiga oid, bu gapda fe‘l ma‘nosini ifodalagan: “... do‘st deb bilmoq”, “farzand deb hisoblamoq” deb tarjima qilinadi.

Yo‘nalish otlarining ishlatilishi. Qadimgi xitoy tilida, yo‘nalish otlari odatda quyidagi hollarda ishlatilgan:

1) odatda boshqa otlar bilan birga qo‘llaniladi (shuningdek “之”, “以” kabi so‘zlar orqali yasaladi), bunda joy nomini ifodalaydi. Zamonaviy xitoy tili bilan o‘xshash. Masalan:

(1) «Mulan she’ri» (木兰诗 Mùlánshī)²⁸ da yoziladi: “东市买骏马”. Dōngshì mǎi jùn mǎ (Sharqiy bozorda yaxshi ot sotiladi). “东” dōng (sharq) yo‘nalishni bildiruvchi ot “市” shì (bozor) bilan birikib, joy nomini bildirgan.

2) fe‘ldan oldin kelib, bu ish-harakatqilingan joy yoki yo‘nalishni ko‘rsatadi.

«Uzun ma’yus kuy» (长恨歌 sháng hèn gē) she’rida²⁹:

“上穷碧落下(穷)黄泉”. Shàng qióng bì luò xià (qióng) huáng quán (Yuqoriga chiqsang osmonni ko‘rasan, pastga tushsang yer ostiga duch kelasan).

Bu gapda “上” shàng, “下” xià so‘zlari “穷” qióng (tugamoq, nihoyasiga etmoq) fe‘lining yo‘nalishini ko‘rsatmoqda.

3) “于” yú (old ko‘makchisi) ni fe‘ldan keyin qo‘yib, joylashuvni bildirish mumkin.

«Lyaochjay g‘aroyibotlari» «Bo‘ri hikoyasi» bo‘limida (聊斋志异•狼 Liáozhāi zhìyì • láng):

²⁸ Yuefu (Qadimgi xitoy xalq qo‘shiqlari) dan namuna

²⁹ Bay Jyui (白居易 772-846) – Tang davri (唐 618-907) shoiri qalamiga mansub asar. (Sixay 1-jild 72-b)

“其一犬坐于前”. Qí yī quǎn zuò yú qián. (Bitta bo‘ri go‘yo it kabi old tomonda o‘tirardi). “于” (old ko‘makchi) va “前” (ot) birikib, “old tomonda” ma’nosini bildirgan. Gapda hol vazifasini bajargan.³⁰

II. Vaqt otlarining qo‘llanilishi. Qadimgi xitoy tilida vaqt otlari 3 turga bo‘linadi:

(1) fe‘ldan oldin kelib, ish-harakatsodir bo‘lgan vaqtni ifodalaydi. Masalan: Li Dao Yuanning «Uch tog‘ darasi» (三峡 sānxiá):

“朝发白帝, 暮到江陵”. Zhāo fā Báidì, mù dào Jiānglíng. (Biz ertalab Baydi shahridan chiqib ketib, kechqurun Jyanlingga yetib bordik.) Bu gapda ot so‘z turkumiga oid 朝 (ertalab), 暮 (kechqurun) 发 (yo‘lga chiqmoq), 到 (etib bormoq) fe‘llariga bog‘lanib, gapda hol vazifasini bajargan.

(2) kun, oy, yil kabi so‘zlar fe‘ldan oldin ishlatilib, “har kuni”

(每日 měiri, 日日 rìrì), “har oy” (每月 měiyuè, 月月 yuèyuè), “har yil” (每岁 měisui, 岁岁 suìsuì) degan ma’nolarni bildiradi.

Masalan: «Syun-zi»ning “Ta’lim-tarbiya nazariyasi” bo‘limida (荀子 劝): “君子博学而日参省乎己”. Jūnzǐ bó xué ér rì cān shěng hū jǐ. (Buyuk hukmdor ko‘pgina ilmlarni o‘rganadi hamda har kuni o‘z-o‘zini imtihon qiladi). Bu gapda 日 rì (kun) oti “har kuni” ma’nosini anglatib, 参省 cān sheng (imtihon qilmoq) fe‘liga bog‘langan. Gapda vaqt holi bo‘lib kelgan.

(3) “日” rì (kun) so‘zi sifatdan oldin kelib, ish-harakatning rivojlanish jarayonini bildiradi. “一天比一天” yì tiān bǐ tiān (kundan kunga, borgan sari) ma’nosini anglatadi.

«Uchpodsholik» “Chju Ge-Lyang” hikoyasi(三国志·诸葛亮传 sānguózhì·Zhūgěliàng zhuán):

³⁰ Saodat Nosirova (2012) “Xitoy tili tarixi” 6-mavzu 53-bet

“于是与亮情好且密”. Yúshì yǔ liàng qíng hǎo rì mì. (Chju Ge-lyang va men o‘rtamizdagi do‘stlik kundan kunga ortib borardi).³¹

Ushbu gapda 日 (kun) so‘zi 密 (yaqin) sifatidan oldin kelgan, “kundan kunga”, “borgan sari” ma’nosini bildirgan. Gapda hol vazifasini bajargan.

Fe’l so‘z turkumi

Xitoy tilshunoslarining fikricha, inson yoki narsa-buyum ish- harakati, psixologik kechinmalari, rivojlanishi, o‘zgarishi va boshqa harakatni bildiruvchi so‘zlar **fe’l** deyiladi. Qadimgi xitoy tilidagi fe’l grammatik xususiyatlari va sintaktik vazifalari zamonaviy xitoy tili bilan o‘xshash. Gapda kesim, hol gap bo‘laklari vazifasini bajargan. Quyidagicha o‘ziga xosliklari mavjud:

I. Fe’l gapda hol bo‘lib kelishi. Qadimgi xitoy tilida fe’l gapda ko‘pincha hol vazifasini bajarib, ish-harakat holati yoki bajarilish usulini bildirgan. Bunda fe’l kesimdan oldin joylashgan. Ko‘pincha ikki fe’l orasiga “而” ér bog‘lovchisi qo‘yilgan.

«Syun-zi»ning “Ta’lim-tarbiya nazariyasi” bo‘limida (荀子· 劝学): “吾跂而望矣”. Wú qí ér wàng yǐ. (Men oyoq uchida turib, olislarga boqardim). “跂” qí (oyoq uchida turmoq) fe’li “望” wàng (nazar solmoq, qaramoq) fe’lining holatini bildirib, gapda hol vazifasini bajargan.

II. Fe’lning gapda kesim bo‘lib kelishi. Fe’l gapda kesim vazifasini bajarganda, u ifoda etgan ish-harakat ega tomonidan bevosita bajarilmaydi, balki bu vazifa to‘ldiruvchiga yuklatiladi. Bunda fe’lning orttirma nisbati yasaladi.

«Tarixnoma» “Syangyuy tarjimai holi” bo‘limi (史记· 项羽本纪 shǐjì• Xiàngyǔ běnjì): “项伯杀人，臣活之”. Xiàngbó shā rén, chén huó zhī. (Syangbo odamlarni o‘ldirib, jinoyat qildi, men esa uni hayotini saqlab qoldim).

³¹ Saodat Nosirova (2012) “Xitoy tili tarixi” 6-mavzu Qadimgi xitoy tili mustaqil so‘z turkumlari “” 116-bet

Bu gapda “活” (yashamoq, tirik bo‘lmoq) “之” (unga) to‘ldiruvchisi bilan birikib, “unga hayot baxsh etmoq” ma’nosini bildirgan.

Sifat so‘z turkumi

Xitoy tilshunoslarining fikricha, inson yoki narsa-buyumning shakli, xususiyati va u ish-harakatining holatini bildiruvchi so‘zlar **sifat** deyiladi. Ularga quyidagilar misol bo‘la oladi:³²

大 dà – katta;

小 xiǎo - kichik;

长 cháng – uzun;

短 duǎn – kalta;³³

高 gāo – baland;

低 dī – past;

红 hóng – qizil;

白 bái – oq;

富 fù – boy;

贵 guì – qimmat;

美 měi – nafis;

恶 è – xunuk;

从容 cóngróng – sekin;

³² Saodat Nosirova (2012) “Xitoy tili tarixi” 6-mavzu Qadimgi xitoy tili mustaqil so‘z turkumlari “” 56-bet

³³ Sao Sao (曹操 Cáocāo 155—220) – Uchpodsholik davri davlat arbobi, sarkardasi, shoir, xarbiy mahorat haqidagi asarlar muallifi. M.a. III asr boshiga qadar Xan davri (m.a.206-eramiz 220) hukmdori va bu sulolani tugatgan shaxs sifatida tarixga kirgan. (Sixay 1-jild 212-b)

仓皇 cānghuáng – xovliqqan;

Venyandagi sifat grammatik va sintaktik xususiyatlari jihatidan zamonaviy xitoy tili (bayxua)dagi sifat bilan deyarli bir xil. Gapda asosan aniqlovchi, hol, kesim bo‘lib kelgan. Ba’zida ega va to‘ldiruvchi bo‘lib kelishi ham mumkin bo‘lgan, ammo bunday sifatlar sifatlik xususiyatlarini allaqachon yo‘qotgan, otlashgan sifatga aylangan. Quyida bu holatni ko‘rib chiqamiz:

Sifatning otlashish hodisasi. Qadimgi xitoy tilida sifat gapda ega va to‘ldiruvchi bo‘lib kelishi mumkin bo‘lgan, ya’ni sifat otlashish xususiyatiga ega bo‘lgan.

«Zojuan» “Nang Gong hukmronligining 19-yili” (左传·囊公十九年 zuǒzhuàn•Nánggōng shíjiǔ nián): “大毋侵小”. Dà wú qīn xiǎo. (Katta mamlakat kichik mamlakatni bosib olishi kerak emas.) “大”, “小”: asli sifatlar, ammo bu gapda “katta mamlakat”, “kichik mamlakat” ma’nosida kelgan, “侵” (bosib olmoq) fe’lining egasi va to‘ldiruvchisi bo‘lib kelgan.

Sifatning fe’llashish hodisasi. Qadimgi xitoy tilida sifatning fe’llashish hodisasi ko‘p uchraydi. Bunda sifat o‘zidan keyin to‘ldiruvchi oladi.

Sao Saoning «Chjitun tyanling»(置屯田令 zhìtúntiánlìng) asarida: “夫定国之术, 在于强兵足食”. Fū dìng guó zhī shù, zài yú qiáng bīng zú shí. (Mamlakatda tinchlik-barqarorlikni o‘rnatish uchun, qurolli kuchlarni yanada kuchaytirish, xalqni esa oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘la ta’minlash lozim.)

“强” (qudratli, kuchli), “足” (etarli) sifatlari bu gapda “使。 。 。 强盛” shǐ。 。 。 qiángshèng – “kuchaytirmoq”, “使。 。 。 充足” shǐ。 。 。 chōngzú – “etarli darajada ta’minlamoq” ma’nolarini bildirgan.

Demak, sifat ma’nosi fe’lga o‘zgargan. Sifat gapda fe’l vazifasini bajarib, o‘zidan keyin to‘ldiruvchini olganda, ega tomonidan to‘ldiruvchini sifat ifoda etgan xususiyatga egaligi sub’ektiv ravishda e’tirof etiladi.³⁴

³⁴ Saodat Nosirova (2012) “Xitoy tili tarixi” 6-mavzu Qadimgi xitoy tili mustaqil so‘z turkumlari “” 56-bet

Masalan: Tao Chyanning ³⁵«Shaftoli guli bitiklari» (桃花源记 táohuā yuánjì):

“渔人甚异之”。Yú rén shèn yì zhī. (Baliqchiga bu holat juda g‘alati tuyuldi.)

“异” (g‘alati) so‘zi asli sifat bo‘lib, bu gapda ma’nosi fe’lga ko‘chishini kuzatamiz: “认为。。。异” rèn wéi。。。yì – “biror holatni g‘alati deb hisoblamoq” ma’nosini anglatadi.

Son

Xitoy tilshunoslarining fikricha, narsa-buyum yoki ish-harakatning sanog‘ini bildiruvchi so‘zlar **son** deb ataladi. Venyandagi son so‘z turkumi **son** va **hisob so‘zlarni** o‘z ichiga olgan.³⁶

Son

Qadimgi xitoy tilidagi sonning qo‘llanilishi zamonaviy xitoy tilidan farq qiladi, quyidagi xususiyatlarga ega:

I. Gapda aniqlovchi, hol vazifasini bajargan, bunda odatda hisob so‘z ishlatilmagan.

Son+Ot

«Yuygun tog‘ni surdi» hikoyasida (愚公移山 Yúgōng yíshān):

“太山王屋二山”。Tàishān Wángwū èr shān. (Tayshan va Vangu bu ikki tog‘.) “二” èr (ikki): son bo‘lib, “山” shān (tog‘) otini aniqlab kelgan, gapda

³⁵ Tao Chyan (陶潜 365-427) – Sharqiy Jin davri (317-420) shoiri. Tao Yuan-ming (陶渊明 táo yuānmíng) taxallusi bilan ko‘proq mashxur. 160 ta she’ri bizgacha yetib kelgan. She’rlarida bir qator axloqiy masalalarni ko‘targan. (Sixay, 3-jild 2074-b)

³⁶ Zamonaviy xitoy tilida hisob so‘zlar alohida so‘z turkumi hisoblanadi.

aniqlovchi vazifasini bajargan.³⁷

Son+Fe'l

«Uchpodsholik» “Chju Ge-Lyang hikoyasi” (三国志·诸葛亮传 sānguózhì·Zhūgěliàng zhuán) bo‘limida:

“由是先主遂诸葛亮，凡三往，乃见”。 Yóu shì xiān zhǔ suì Zhūliàng, fán sān wǎng, nǎi jiàn. (Shu sababli Chju Ge-lyang huzuriga xammasi

bo‘lib uch marta tashrif buyurdim, shundagina uni ko‘rish baxtiga muyassar bo‘ldim.)

“三” (uch) son so‘z turkumi, “往” (bormoq) fe’lini xolatini bildirmoqda, gapda hol vazifasini bajargan.

II. Son predmetning sanog‘ini bildirganda, ba’zida otdan keyin joylashgan.

Ot+Son

Vey Syue-I «Xe chjouji»³⁸ (核舟记):

“通计一舟，为人五，为窗八”。 Tōngjì yī zhōu, wéi rén wǔ, wéi chuāng bā. (Bitta qayiqda hammasi bo‘lib beshta odam, sakkizta deraza bor.)

“一” (bir) soni otdan oldin kelgan, “五” (besh), “八” (sakkiz) esa aksincha otdan keyin kelgan.

三。 *Kasr, chama, noaniq sonlar ifodalanishi zamonaviy xitoy tiidan farq qiladi: a) Kasr son*

Maxraj+Surat=Kasr son

«Tarixnoma» ning “Chenshe shijya” (史记·陈涉世家) bo‘limida:

³⁷ 魏学洵 Wèi Xuéyī (Taxminan 1596-1625) – Ming (1368-1644) davri Taniqli yozuvchisi. (32,2214-b)

³⁸ 魏学洵 Wèi Xuéyī (Taxminan 1596-1625) – Ming (1368-1644) davri Taniqli yozuvchisi. (32,2214-b)

“而戍死者固十六七”. Ér xū sǐ zhě gù shí liù qī. (Chegara posbonlaridan halok bo‘lganlar soni 10 dan 6, 7ni tashkil qiladi.)

Chama son odatda “可” kě, “所” suǒ, “许” xǔ so‘zlari orqali yasaladi.

“可” (“所”, “许”)+ **Son=Chama son.**

«Xan kitobi» “Qirol Chjang hikoyasi” (汉书•王章传) bo‘limida: “年可十二”. Nián kě shí èr. (U chamasi 12 yoshlarda edi.)

Noaniq son

Qadimgi xitoy tilidagi son ba’zida shakl jihatdan aniq son bo‘lsa-da, aslida noaniq bo‘lishi ham mumkin bo‘lgan.

Odatda “三” (3), “九” (9), “百” (100), “千” (1000), “万” (10000) singari sonlar shular sirasiga kirgan. Shuning uchun ularni so‘zma-so‘z tarjima qilish mumkin emas, balki “ko‘p” tarzida tarjima qilinadi.

Masalan: «Lunyuy»:

“季文子三思后行”. Jì Wénzǐ sān sī hòu xíng. (Ji Venzi har bir ishni yetti o‘ylab, keyin kesadi.)

Sonning fe’l lashishi.

Masalan: «Tarixnoma» “Chin Shi-xuang faoliyati” (史记•秦始皇本纪) bo‘limida:

“古时，天下散乱，莫之能一”. Gǔshí, tiānxià sǎnlùn, mò zhī néng yī. (Qadim zamonlarda Xitoyda tartibsizlik va parokandalik hukm surardi, hech kim bu davlatni birlashtirish uddasidan chiqolmadi.)

Bu gapda “一”: “bir” ma’nosini beruvchi son, “统一” tǒngyī (birlashtirmoq) fe’l ma’nosini bildirgan.³⁹

5§. Hisob so‘zlar

³⁹ Saodat Nosirova (2012) “Xitoy tili tarixi” 6-mavzu Qadimgi xitoy tili mustaqil so‘z turkumlari “” 63-bet

Qadimgi xitoy tilidagi hisob soʻzlar zamonaviy xitoy tiliga nisbatan kamroq ishlatilgan, biroq ularning mavjudligini hech kim inkor qilolmaydi. Hozirgi zamon xitoy tiliga oʻxshab qadimgi xitoy tilining hisob soʻzlari ham ikki katta guruhga boʻlinishi mumkin:

1. 名量词 mǐngliàngcǐ (物量词 wùliàngcǐ) – nom hisob soʻzlari;
2. 动量词 dòngliàngcǐ – harakat hisob soʻzlari;

Nom hisob soʻzlari – ot soʻz turkumi bilan qoʻllanadigan hisob soʻzlar (dona, sop va h.k.).

Harakat hisob soʻzlari – feʼl soʻz turkumi bilan qoʻllanadigan hisob soʻzlar (marta, mahal va h.k.).

Qadimgi xitoy tilidagi hisob soʻzlar son bilan birikib, son hisob soʻzlarini hosil qilgan. Quyidagi ikki modelni koʻrib chiqaylik:⁴⁰

Olmosh

Ot, sifat, son, ravish oʻrnida qoʻllanadigan soʻz turkumi **olmosh** deyiladi. Uning asosiy vazifasi nutqdagi takrorlanishlarni oldini olish, uni loʻnda va sodda boʻlishini taʼminlash. Qadimgi xitoy tilidagi olmoshlar uch turga boʻlinadi:

- 1) kishilik olmoshlari (称代词 chēng dài cǐ)
- 2) koʻrsatish olmoshlari (指示代词 zhǐshì dài cǐ)
- 3) soʻroq olmoshlari (疑问代词 yíwèn dài cǐ)

Kishilik olmoshlari – shaxsni bildiradigan olmoshlar, yaʼni ushbu olmoshlar faqatgina otlarni oʻrnida qoʻllaniladi. Kishilik olmoshlari oʻz oʻrnida birinchi shaxs olmoshlari, ikkinchi shaxs olmoshlari va uchinchi shaxs olmoshlariga boʻlinadi.

Birinchi shaxs kishilik olmoshlari Venyanda quyidalar birinchi shaxs olmoshlari hisoblangan:

⁴⁰ Saodat Nosirova (2012) “Xitoy tili tarixi” 6-mavzu Qadimgi xitoy tili mustaqil soʻz turkumlari “” 63-bet

- 1) “余” yú;
- 2) “予” yú;
- 3) “我” wǒ;
- 4) “吾” wú;
- 5) “朕” zhèn;
- 6) “印” áng;
- 7) “台” yí

Odatda “ 予 ”, “ 余 ” va “ 我 ” gapda ega, to‘ldiruvchi va aniqlovchi bo‘lib kelgan.

我非爱其财而易之以羊。 Wǒ fēi ài qí cái ér yì zhī yǐ yáng. – Men boylik orttirish maqsadida buni qo‘yga almashtirayotganim yo‘q. («Meng-zi» “Lyangxoy vang shang” bo‘limi)⁴¹

尔为尔，我为我。 Ěr wéi ěr, wǒ wéi wǒ. – Sen – bu sen, men – bu men. («Meng-zi» “Gong Song choushang” bo‘limi)

Birinchi misolda “ 我 ” olmoshi gapda ega vazifasini bajargan, ikkinchi misolda avval kelgan 我 – ega, keyingisi esa – kesim bo‘lib, “men” ma’nosini bildiradi.

吾 birinchi shaxs kishilik olmoshi Dastlabki Chin (221-207) davri xitoy tilida gapda ega va aniqlovchi vazifasini bajara olgan. Bundan tashqari bo‘lishsiz gaplarda to‘ldiruvchi vazifasini bajargan, gapdagi tartibi fe’ldan oldin bo‘lgan.

吾妻之美我者私。 Wú qī zhī měi wǒ zhě sī. – Rafiqam meni qaddi-qomati kelishgan deb o‘ylaydi, meni juda yaxshi ko‘radi. («Kurashuvchi shohliklar» “Chi strategiyasi” bo‘limi)

⁴¹ Saodat Nosirova (2012) “Xitoy tili tarixi” 6-mavzu Qadimgi xitoy tili mustaqil so‘z turkumlari “” 64-bet

Uchinchi misoldagi 吾 olmoshi “妻” (rafiqa, ot so‘z turkumi)ning aniqlovchisi vazifasini bajargan, “mening” tarzida tarjima qilinadi. “朕” kishilik olmoshi Dastlabki Chin davrida asosan gapda aniqlovchi va ega vazifasini bajargan.

朕皇考曰伯庸。Zhèn huáng kǎo yuē bó yōng. – Mening rahmatli otamni ismi Bo Yung edi. (Chyu Yuan «Lisao»)

To‘rtinchi misolda 朕 olmoshi “皇考” (raxmatli ota, ot)ni aniqlab, gapda aniqlovchi vazifasini bajargan. Tarjimasi - “mening”. “台” olmoshi ko‘pincha gapda ega va aniqlovchi vazifasini bajargan.⁴²

朝夕纳海，以辅台德。Zhāo xī nà huì yǐ fǔ yí dé. – Butun kunimni ilm o‘rgatishga bag‘ishlayman, davlat boshqaruvi muommolarini bartaraf etish –men uchun eng oqilona vazifadir. («Shangshu» “Shoming shang” bo‘limi)

Beshinchi gapda 台 kishilik olmoshi “德” (axloq, ot)ni aniqlab, gapda aniqlovchi vazifasini bajargan. Tarjimasi – “mening”.

“印” birinchi shaxs kishilik olmoshi ko‘pchilik hollarda gapda ega vazifasini bajargan.

人涉印否，印须我友。Rén shè áng fǒu, áng xū wǒ yǒu. – Boshqalar daryoning narigi qirg‘og‘iga o‘tishdi, men esa o‘tmadim, sababi men

do‘stimni kutishim kerak edi. («Shijing» “Beyfeng” bo‘limi) Oltinchi gapdagi ikkala 印 olmoshi ham gapda ega vazifasini bajargan, “men” tarzida tarjima qilinadi.

Qadimgi xitoy tilida “台” va “印” nisbatan kam ishlatilgan. Qadimgi tarixiy manbalarni ko‘zdan kechirar ekanmiz, bu so‘zlarning tarjimasiga alohida ahamiyat berishimiz kerak.

⁴² Saodat Nosirova (2012) “Xitoy tili tarixi” 6-mavzu Qadimgi xitoy tili mustaqil so‘z turkumlari “” 65-bet

Ikkinchi shaxs kishilik olmoshlari. Venyanda ikkinchi shaxs kishilik olmoshlaridan ko‘pincha quyidagilar ishlatilgan:

- 1) “女” nǚ (“汝” rǔ);
- 2) “尔” ěr;
- 3) “若” ruò;
- 4) “乃” nǎi;
- 5) “而” ér.

Ushbu ikkinchi shaxs olmoshlari ham o‘z o‘rnida ikki guruhga bo‘linadi:

Birinchi guruh “女” (“汝”), “尔”, “若” bu 3 ta olmosh gapda ega, to‘ldiruvchi va aniqlovchi vazifasida kelishi mumkin.

(1) 居，吾语女。 Jū wú yǔ nǚ. – (Sen) Biroz o‘tirib tur, men senga hammasini gapirib beraman. («Lunyuy» “Yangxo” bo‘limi)

Birinchi gapda 女 olmoshi “语” (gapirib bermoq fe‘l)ning to‘ldiruvchisi bo‘lib kelgan, tarjimasi – “senga”⁴³.

若虽长大，好带刀剑，中情怯耳。 Ruò suī zhǎng dà, hǎo dài dāojiàn, zhōng qíng qiè ěr. – Garchand sen bo‘ying baland, qaddi-qomating kelishgan yigit bo‘lsang-da, o‘zing bilan doim qurol olib yurasan, aslida sen qo‘rqoqsan. («Tarixnoma» “Inxou tarjimai holi” bo‘limi)

Ikkinchi gapdagi 若 olmoshi ham gapda ega vazifasini bajarib, “sen” tarzida tarjima qilinadi.

Ikkinchi guruh “乃”, “而” olmoshlari gapda asosan aniqlovchi, ba’zi paytlarda ega vazifasini bajargan, to‘ldiruvchi bo‘lmagan.

⁴³ Saodat Nosirova (2012) “Xitoy tili tarixi” 6-mavzu Qadimgi xitoy tili mustaqil so‘z turkumlari “” 67-bet

若归，试私从容问而父。Ruò guī, shì sī cóngróng wèn ér fù – Sen uyga qaytgach, bu haqda sekin otangdan so‘rab ko‘r. («Tarixnoma» “Sao Syanggo tarjimai holi” bo‘limi)

Uchinchi gapda 而 “父” (ota, ot so‘z tur.) dan oldin kelib, aniqlovchi vazifasini bajargan. Tarjimasi – “sening”.

Uchinchi shaxs kishilik olmoshlari. Qadimgi xitoy tilida uchinchi shaxs olmoshlaridan ko‘pincha quyidagilar ishlatilgan⁴⁴:

- 1) “其” qí;
- 2) “之” zhī;
- 3) “厥” jué;
- 4) “彼” bǐ.

Kishilik olmoshlarning ko‘plik shakli Zamonaviy xitoy tilida kishilik olmoshlarining birlik va ko‘plik shakllari mavjud va ular shakl jihatidan har xil:

- 1) birlik shakli: 我 wǒ, 你 nǐ, 他 tā;
- 2) ko‘plik shakli: 我们 wǒmen, 你们 nǐmen, 他们 tāmen.

Qadimgi xitoy tilida esa kishilik olmoshlarining birlik va ko‘plik shakllari farqlanmagan. U holda ko‘plik va birlikdagi ma’noni qanday ajratish mumkin degan savol tug‘iladi. Buning ikki yo‘li bor:

a) matn bo‘yicha. Ya’ni venyan matni tarjimasi qoidalariga binoan, bu gapdan oldingi gaplarni tahlil qilish orqali to‘g‘ri ma’no chiqariladi;

b) ayrim ko‘plikni bildiruvchi so‘zlar orqali. Xan sulolasi (M.a. 206-milodiy 220)dan keyingi davrlarda, venyanda kishilik olmoshlari bilan birga qo‘llanib, ko‘plik ma’nosini bildiruvchi quyidagi so‘zlarni uchratishimiz mumkin:

“辈”, “曹”, “属”, “等”, “侪 bèi, cáo, shǔ, děng, chái,

⁴⁴ Saodat Nosirova (2012) “Xitoy tili tarixi” 6-mavzu Qadimgi xitoy tili mustaqil so‘z turkumlari “” 67-bet

Bu soʻzlar mustaqil leksik maʼnoga ega, shuning uchun ularni koʻplik qoʻshimchasi deb boʻlmaydi, zamonaviy xitoy tilidagi “们” (men- odamlarga nisbatan koʻplik suffiksi). Ular “bir guruh, bir turkum” degan maʼnolarni bildirib, aniq matn tarkibida olmoshlarning koʻplik maʼnosini yasaydi.

Qadimgi xitoy tilida belgilash olmoshi vazifasini asosan “他” tā olmoshi bajargan. Dastlab “他” tā kishilik olmoshi emas, balki belgilash maʼnosini bildiruvchi olmoshsifatida qoʻllanilgan.

“Boshqa”, “boshqalar” tarzida tarjima qilinadi.

● 无他故焉。Wú tā gù yān. – Bu yerda boshqa sabab yoʻq. («Syun-zi» “Vang chji” boʻlimi)

I Soʻroq olmoshlari biror kimsa, narsa-buyum, belgi yoki son haqidagi soʻroqni bildiradigan olmoshlardir. Qadimgi xitoy tilidagi soʻroq olmoshlari ikki turga boʻlingan⁴⁵:

- 1) kishi haqidagi soʻroq olmoshlar;
- 2) narsa-buyum haqidagi soʻroq olmoshlar.

1. “何” (hé) narsa-buyum va joy nomi haqidagi soʻroqni bildirishi mumkin. Grammatik vazifalari: a) toʻldiruvchi (“qayerga”); b) aniqlovchi (“qanday”); v) hol (“qayday qilib”); g) kesim (“nima uchun”). 軫不之楚，何归乎？Zhěn bú zhī chǔ, hé guī hū? – Jen Chu

mamlakatiga bormas ekan, unda qayerga boradi? («Tarixnoma» “Jang I tarjimai holi” boʻlimi)

2. “曷” (hé) soʻroq olmoshi boʻlib kelganida, asosan narsa-buyumni bildiradi. Uning grammatik vazifalari quyidagilardan iborat: a) ega (“nima”);

⁴⁵ Saodat Nosirova (2012) “Xitoy tili tarixi” 6-mavzu Qadimgi xitoy tili mustaqil soʻz turkumlari “” 71-bet

b) to‘ldiruvchi (fe‘l yoki predlogdan oldin keladi, “nimani”);

v) hol (“nima uchun”, “qanday qilib”); g) aniqlovchi (“qaysi”, “qanday”).

庄王怒曰：“吾使子往视之，子曷为告之？” Zhuāng wáng nù yuē: “wú shǐ zǐ wǎng shì zhī, zǐ hé wéi gào zhī?” – Shu mamlakati qiroli Juang g‘azab ila dedi: “Men sizni Song mamlakatidagi ahvol haqida bilib kelish uchun jo‘natgandim, siz nima uchun ularga bizning ahvol haqida aytdingiz?” («Gongyang juan» “Syuan Gong hukmronligining 15 yili”).

3. “胡” (hú) so‘roq olmoshi asosan narsa-buyum haqidagi so‘roqni bildiradi. Grammatik vazifalari: a) hol (“nima uchun”, “qanday qilib”); b) to‘ldiruvchi (“nima”).

4. “安” (ān) so‘roq olmoshi qadimgi xitoy tilida ko‘pincha joy nomi haqidagi so‘roqni anglatgan, ba’zida narsa-buyumni ham bildirgan. Grammatik vazifalari:

hol (“qanday qilib”, “nima uchun”); b) to‘ldiruvchi (“qayerda”, “nima”).

沛公安在？ Rèi gōng ān zài? – Peygong qayerda? («Tarixnoma» “Syangyuy tarjimai holi” bo‘limi)

5. “奚” (xī) odatda joy nomi va narsa-buyumni bildiruvchi so‘roq olmoshi bo‘lib, gapdagi grammatik vazifalari quyidagilardan iborat: a) hol (“qanday qilib”, “nima uchun”); to‘ldiruvchi (“nima”).

6. “恶” ⁴⁶(wū) odatda narsa-buyum, joy nomi, holatni bildiruvchi so‘roq olmoshi bo‘lib, grammatik vazifalari quyidagicha:

a) hol (“qanday qilib”, “nima uchun”);

b) to‘ldiruvchi (fe‘l yoki predlogdan oldin keladi, “nimani”).

敢问夫子恶乎长？ Gǎn wèn fūzǐ wū hū zhǎng? – Iltimos ayting-chi, ustoz qaysi sohani mukammal egallagan? («Meng-zi» “Gong Song choushang” bo‘limi)

⁴⁶ Venyanda “恶” ko‘p ma’noli so‘z bo‘lib, 1) fe‘l (wù): “yomon ko‘rmoq”; 2) sifat (è): “yomon”; 3) ot (è): “yomon odam”, “yomonlik” 4) so‘roq olmoshi (wū) ma’nolariga ega.

II.BOB G‘ARB GRAMMATIKASINING XITOIY TILI GRAMMATIK TERMINOLOGIYASIGA TA‘SIRI

Xitoy tili tilshunoslik terminlari tizimining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari

“Xitoyshunoslik Rossiya va boshqa Yevropa davlatlarida XVIII – XIX asrlar bo‘lag‘asida , biroz keyin Yaponiyada ilk lug‘atlar va grammatikaning yuzaga kelishi bilan shakllangan. Xitoyning o‘zida esa, aynan til grammatikasining o‘rganilishi nuqtai nazardan nisbatan kech, ya’ni XIX asr oxirida 马建忠 Mǎjiànzhōngning 马氏文通 grammatikasining 1898 yilda nashr e‘tilishi bilan shakllana boshlagan. Unga qadar Xitoyda til va yozuv an’anaviy filologiya doirasida o‘rganilgan.⁴⁷

2.1 Ma Jianzhong gramatik terminologiyasi

Xitoy an’anaviy filologiyasida asosiy e’tibor fonetika(bo‘g‘in tuzilishi, ton(ohang), rifma (qofiya)lar va b.) va iyeroglifika (iyerogliflarning turlari va shakllari), shevalar(dialectal lug‘atlar), yordamchi so‘zlar talqini va matn tavfsifiga qaratilgan”⁴⁸.Biroq xitoy yozuvi , uning butun mamlakat bo‘ylab birlashtirilishi uchun amalga oshirilgan islohotlar, tuzilgan leksikografik asarlar qadimgi xitoy tilidayoq yordamchi so‘z 虚词 *xūcí*larning farqlanishi dialektologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlar, qadimgi Xitoyda aynan tilshunoslik ilmining mustaqil ilm sifatida tarqqiy etganligini ko‘rsatib turadi.

Xitoyda tilshunoslik ilmining rivolanishi, soha terminlarining shakllanishi va taraqqiyotidan kelib chiqibm xitoy tilshunoslik terminlari taraqqiyoti uch bosqichga ajratdik:

- Ilk bosqichm ya’ni xitoyda yozuv, fonetika, leksikografiya va dialektologiya sohalari taraqqiyoti, tilshunoslikning mazkur sohalarida qo‘llanilgan terminlar evolutsiyasi, tahminan mil.avv.1000 yildan milodiy XIX asr oxirlariga qadar;

⁴⁷王力, 中国语言学史山西: 山西人民出版社, 1981年, 第3页。

⁴⁸Большой энциклопедический словарь: языкознание. М.: Большая российская энциклопедия,

- Ikkinchi bosqich, Xitoyda grammatik tadqiqotlarning yuzaga kelishi va tilshunoslikning G‘arb tilshunosligi andozasida rivojlanishi, grammatika sohasi terminlari;

- Uchinchi bosqich, hozirgi xitoy tilshunosligi terminlari, XX asrning 50-yillaridan boshlab hozirga qadar bo‘lgan davr. Bunda XXR tashkil topgandan keyin xitoy tili va Xitoyda tilshunoslik sohasi taraqqiyoti, buning ta‘sirida lingvistik terminologiyada kechgan o‘zgarishlar.

Xitoy tili tilshunoslik terminologiyasi ilk bosqichi ananaviy xitoy tilshunosligi terminologiyasi bulib, mumtoz xitoy tilshunosligining uziga xos jihatlarini quyidagilar:

- asosiy e‘tiborning yozma til, venyanga qaratilishi va tadqiqot obyekti sifatida aynan shu tilning tanlab olinishi;

-asosan leksikologiya, leksikografiya va fonetika bilan bog‘liq masalalarninr urranilishi;

-grammatik tadqiqot doirasida faqat 虚字 *xūzì* yoki 虚词 *xūcí* yordamchi so‘zlarning tavsifi berilishi.⁴⁹

Xitoy tilshunosligi tarixida grammatik tadqiqotlarning yuzara kelishi va soha terminlari taraqqiyoti

Xitoy tilshunosligi o‘z taraqqiyot bosqichlarida kuzatilgan ikkinchi ta‘sir fanning barcha soxalariga kirib borgan. Ching sulolasi tugab, ozodlikka erishgunga qadar g‘arb tilshunosligining ta‘siri, ayniqsa, kuchli bo‘lgan. Afyun urushida mag‘lubiyatga uchpagandan keyin, kator ziyolilar mamlakatni kutkarish uchun g‘oya yangilanishi kerak, bunin uchun esa chet elni o‘rganish lozim deb hisoblashgan. Bu kabi siyosiy karashlar.ilm-fandah aks eta boshladi va G‘arb ilmi Xitoyga “ko‘chirib” o‘tqazildi .Jumladan, tishunosligiga ko‘chirib olib kirildi.⁵⁰

Qadimdan Xitoy olimlari ayrim grammatik hodisalarga e‘tibor qaratishgan. Masalan,

⁴⁹ Курдюмов В.А курс китайского языка: теоритическая грамматика. -М, 2006.-С.18.

⁵⁰王力，中国语言学史山西：山西人民出版社，1981年，第173页。

《说文》Shouwenda: “者，别事词也“Zhě, bié shì cí yě” : “皆，俱词也” “jiē, jù cí yě” ; “曾，词之舒也”; “céng, cízhīshūyě”; ““乃词之难也”“nāi, cízhīnánye”: “尔，词之必然也”“er, cí shì biran ye”, “矣，语已词也”“a, yǔyǐche” deyiladi. 《说文》Shuowenda 词 ci bugungi kundagi 虚词 xuci , ya’ni yordamchi so‘zlar tushunchasiga to‘g‘ri keladi. 《说文》: “词，意内而言外也” cí, yì nèi ér yán wài yě “词”ci so‘z, mazmuni o‘zida mujassam etgan, biroq 言 yán mustaqil so‘zdan tashqari (birlik)dir” deyiladi. Min davrda yashagan 刘清 Liu Qingning 《〈助字辨略〉》 zhù zì biàn lüè “Ko‘makchi so‘zlarning qisqa sharhi” asarida <<助字>> zhù zì > 助 zhù <<yordam bermoq; ko‘mak bermoq>> + 字 zì << iyeroglif; so‘z >> , ya’ni << ko‘makchi so‘z>> termini << 语助 >> yǔzhù tarzida qo‘llanilgan. Yordamchi so‘zlar grammatik birlik hisoblansa-da, bu davrlardagi yordamchi so‘zlar grammatik nuqtai nazardan o‘rganilmagan, ular asosan leksik va semantic yoki fonetik jihatdan tadqiqot obyekti bo‘lgan.

Xitoyga buddizm bilan birga muqaddas diniy kitoblar va Sanskrit tilidan yirik bir lug‘aviy qatlam ham kirib kelgan, biroq Sanskrit grammatikasining xitoy tili grammatikasiga ta’siri kuchli emas.⁵¹

Xitoy tilida so‘z turkumlariga ajratish masalasiga ham qadimgi xitoy tilshunosligida tuxtalib utilgan urinlar bulgan. Sung sulolasi davrida . so‘zlarni 动字 dòngzì > 动 dòng «harakat; harakat qilmoq» + 字 zì «iyeroglif; so‘z» «harakatni bildiruvchi so‘zlar» va 静字 jìngzì > 静 jìng «tinch» + 字 zì «iyeroglif; so‘z» «harakatsiz, tinch narsalarni ifodalovchi so‘zlar»ga ajratilgan, «动字 dòngzì > 动 dòng > 动 dòng «harakat; harakat qilmok,» + 词 cí «so‘z», «fel» va 静字 jìngzì esa 名词 míngcí > 名 míng «nom; ot; ism» + 词 cí «so‘z», «ot»ga tog‘ri keladi. Bularni xitoy tili grammatikasining ilk kurtaklari deyish

⁵¹王力，中国语言学史山西：山西人民出版社，1981年，第174页。

mumkin, biroq u ham grammatikaning tizimli tadqiqidan ancha uzoqda edi.

Xitoy tilshunosligida 马建忠 *Ma Jianzhongning* 《马氏文通》 *Mashiwentong* grammatikasini tom ma'nodagi ilk grammatik kitob deyish mumkin.⁵²

Xitoy tili grammatikasi bo'yicha tadqiqotlarning ilk davrini ikki bosqichga ajratish urinli: birinchi bosqich, uyg'onish davri 马建忠 *Ma Jianzhong* 杨树达 *Yang Shuda* 黎锦熙 *Li Jinxi* kabi tilshunolar bu davr namoyandalari sifatida e'tirof etiladi.

Ikkinchi bosqich taraqqiyot davri bo'lib, ushbu davr namoyandalari 王力 *Wánglì*, 吕叔湘 *Lǚ Shūxiāng*, 高名凯 *Gāo Míngkǎi* hisoblanadi.

Ma Jianzhong Fransiyada huquqshunoclik va aniqfanlar bo'yicha ta'lim olgan, xitoy ananaviy tilshunosligi bo'yicha puxta biliilarga ega shaxs bo'lib, u yasharan davr XIX asr oxirlarida Yevropa tilshunosligi allakachon tarakkiy etib bulgan davr edi. Shu sabab, u yapatgan 《马氏文通》 *Mashiwentong* grammatikasi faqat G'arbning 葛郎玛 *gělángmǎ* (grammar) grammatikasi tasirida yaratilgan.

Kitob to'rt bulimdan iborat: birinchi bo'lim, 正名 *Zhèngmíng* nomlash yeki nomlar tavsifi deb nomlanadi. Bu bo'limda bir qancha grammatik terminlarga 定义 *dìngyì* ya'ni tavsif beriladi. Muallif tomonidan izox 界说 *jièshuō* so'zi bilan yuritiladi. xar ikkisi xam ingliz tiidagi definition so'ziga to'g'ri keladi). Jami yigirma uch tavsif yozilgan.

Ikkinchi bo'lim 实字 *shí zì* bugungi kundaa 实词 *shí cí* deb yuritiladi, to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinganda «haqiqiy so'zlar» ma'nosini anglatuvchi ushbu termin xitoy tilshunosligida mustaqil so'z turkumlarga nisbatan qo'llaniladi. Muallif shí zì larni besh turkumga ajratadi: 名词 *míngcí* > 名 *míng* «nom; ot; ism» + 字 *zì* «iyeroglif; so'z», ot so'zlar; 代字 *dàizì* > 代 *dài* «

⁵²王力, 中国语言学史山西: 山西人民出版社, 1981年, 第174页。

almashtirmoq; o‘rnida kelmoq» + 字 zì «iyeroglif; so‘z», olmosh; 动字 *dòngz* 动 *dòng* harakat; harakatlanmoq» + 字 zì «iyeroglif; so‘z»; fel; 静字 *jìngz* 静 *jìng* «tinch; sokin» + 字 zì «iyeroglif; so‘z», sifat; 状字 *zhuàngz* 状 *zhuàng* «holat» + 字 zì «iyeroglif; so‘z» ravish. Uchinchi bo‘lim 虚字 *xūzì* «qalbaki so‘zlar» ya’ni, yordamchi so‘z turkumlari. Ularni muallif to‘rt turkumga ajratadi: 1) 介子 *jièzǐ* 介 *jiè* «vositachilik qilmoq» + 字 zì «iyeroglif; so‘z», predlog; old ko‘makchi; 2) 连字 *liánzì* 连 *lián* « bog‘lamoq» + 字 zì «iyeroglif; so‘z», bog‘lo‘vchi; 3) 助字 *zhùzì* 助 *zhù* «yordam bermoq ko‘maklashmoq; yordamchi, ko‘makchi» + 字 zì «iyeroglif; so‘z» modal so‘zlar (yuklama); 4) 叹字 *tànzì* 叹 *tàn* «ho‘rsinmoq» + 字 zì «iyeroglif; so‘z», undov so‘zlar. To‘tinchi bo‘lim 句读 *jùdòu* deb nomlanadi, 句 *jù* «gap», ushbu o‘rinda 读 (*dú* tarzda talaffuz qilinadi, hozirda 逗 *dòu* iyeroglifi vositasida ifodalanadi) 分句 *fēnjù* «so‘z qo‘shilmasi; jumla» ma’nosida qo‘llanilgan. Bu bo‘lim tilning sintaktik xususiyatlarini o‘rganishga va so‘z qo‘shilmalariga bag‘ishlangan.

“Mashiwentong”da G‘arb grammatikasiga taqlidan yozilgan o‘rinlar juda ko‘p.

Birinchiidan, asarda 接读代 *Jiēdú dàizì* «bog‘lo‘vchi olmoshlar» G‘arbda «munosabat olmoshlari» deb ataladigan olmosh turi (relative pronouns)ga muvofiq ajratadi. Bunday olmoshlarga 其 *qí* qadimgi xitoy tilida tahmin, buyruq ma’noli gaplar va gaplarda ma’no kuchaytirishga xizmat qilgan; 者 *zhě* gap o‘rtasida pauzani ifodalash uchun qo‘llanilgan; 所 *suǒ* ish harakatning qabul qiluvchisi, umumlashtiruvchi so‘z sifatida qo‘llanilgan so‘zlarni kiritadi⁵³;

Ikkinchiidan, 约指代字 *Yuēzhǐ dàizì* «tahminiy ko‘rsatish olmoshlari» Ma Jiazhong bu tur olmoshlariga 皆 *jiē* «hamma, barcha», 多 *duō* «ko‘p», 凡 *fán* «barcha» so‘zlarni kiritadi⁵⁴ va bu o‘rinda franso‘z grammatikasi ta’siri

⁵³ 马建忠, 马氏文通.-北京: 商务印书馆, 1998 “第 60-78 页

⁵⁴ 马建忠, 马氏文通.-北京: 商务印书馆, 1998 “第 96-103 页

seziladi, chunki fransuz tilida *tout* (皆 *jiē*, 凡 *fán* -«hamma, barcha») va *plusieurs* (多 *duō* 《ko‘p》) to‘ldiruvchi vazifasida qo‘llanilganda olmosh hisoblanadi.

Uchinchidan, yo‘nalish va o‘rin ifodalovchi so‘zlarning old ko‘makchi vazifasida qo‘llanilishga Ma Jiazhong quyidagicha ta‘rif beradi: vaqt yoki o‘rin-joyini ifodalashda 上 *shàng* 《yuqori》, 下 *xià* 《past》, 内 *nèi* 《ichki;ichkari》, 外 *wài* 《tashqi; tashqari》 so‘zlari ko‘makchi vazifasini bajaradi, ular toponim, antroponim, yoki vaqtni ifodalovchi so‘zlar bilan qo‘llanilib, gapda ulardan keyin keladi va bu kabi vaziyatlarda old ko‘makchining qo‘llanilishiga extiyoj qolmaydi.⁵⁵

To‘rtinchidan, 坐动 *zuòdòng* va 散动 *sàndòng*⁵⁶ terminlari: muallif qo‘llagan 坐动 *zuòdòng* termini yevropa tillaridagi aniq shakldagi fe‘l (*finite verbs*)ga to‘g‘ri kelsa, 散动 *sàndòng* ushbu tillar grammatikasidagi mavhum shakldagi fe‘l (*infinite verbs*) tushunchalarini ifodalaydi.

Beshinchidan, Ma Jiazhong 可 *kě* 《mumkin》, 足 *zú* 《yetarli》, 能 *néng* 《qila olmoq》, 得 *dé* 《kerak, lozim》 so‘zlarini 助动字 *zhùdòngzì*, ya‘ni ko‘makchi fe‘llar sirasiga kiritadi. Ko‘rinib turibdiki, bu G‘arb tillaridagi modal fe‘llar (*auxiliary verbs*)ga taqlid.

Shunga qaramasdan, asar to‘laligicha G‘arb tillariga taqlid deyish noto‘g‘ri bo‘ladi. Ma Jiazhong so‘z turkumlari orasida 助字 *zhùzì* so‘z turkumini kiritishi muhim yangilik bo‘lgan. Unga qadar xitoy tilida 助字 *zhùzì* deyilganda 虚词 *xūcí* yordamchi so‘z turkumlari tushunilgan, lekin Ma Jiazhong bu termini 语气词 *yǔqìcí* yuklamaga nisbatan qo‘llagan. Muallif yana 象静司词 *xiàngjìngsīcí* terminini qo‘llaydi, 象静 *xiàngjìng* hozirgi xitoy tilidagi 形容词 *xíngróngcí* sifat so‘z turkumini ifodalagan, 司词 *sīcí* esa odatda yuklamadan keyin keladigan otga nisbatan qo‘llaniladi. Bu o‘rinda u sifatdan keyin keladigon otga nisbatan

⁵⁵马建忠,马氏文通.-北京: 商务印书馆, 。1998 “第 119-121 页

⁵⁶马建忠,马氏文通.-北京: 商务印书馆, 。1998 “第 263-287 页

qo‘llaniladi. Bu o‘rinda u sifatdan keyin keladigon otga nisbatan qo‘llanilgan. Bu ham xitoy tilining o‘ziga hos xususiyatidan kelib chiqqan holda muallif tomonidan chiqarilgan xulosa. Ma Jiazhong 系词 *xìcí* 《bog‘lama》 larni 动词 *dòngcí* fe‘l so‘z turkumiga kiritmay, 断词 *duàncí* deb nomlaydi va 静字 *jìngzì*, ya‘ni sifat so‘z turkumiga kiritadi. Bunda lotin tilining ta‘siri sezilib turibdi. 系词 *xìcí* dan keyin kelgan ot yoki sifatni 表词 *biǎocí* deb ataydi. Bunda lotin va franso‘z grammatikalarining ta‘siri ko‘rinadi (fr. *Attribut*).⁵⁷

黎锦熙 *Líjǐnxī* 《新著国语文法》 *Xīnzhùguóyǔwénfǎ* “Adabiy tilning yangi grammatikasi”(1924), 《比较文法》 *Bǐjiàowénfǎ* “Qiyosiy grammatika”(1933) asarlari muallifi. 《新著国语文法》 *Xīnzhùguóyǔwénfǎ* “Adabiy tilning yangi grammatikasi” asari ko‘proq ingliz tili grammatikasiga tayanib yaratilgan. 是 *shì* so‘zidan keyin keladigan mustaqil so‘zni 补足语 *bǔzúyǔ* yoki 补位 *bǔwèi* deb nomlaydi, ushbu terminlardagi 《补足》 *Bǔzú* yoki 《补》 *Bǔ* so‘zlari 《to‘ldirmoq》 ; 语 *yǔ* 《so‘z》 ; 位 *wèi* esa 《o‘rin》 , 《birlik》 ma‘nolarini anglatadi, terminlar 《to‘ldiruvchi》 yoki 《to‘liqluvchi》 yoki 《to‘liqluvchi bo‘lak》 ma‘nosida qo‘llanilgan. Zamonaviy xitoy tili grammatikasida qo‘llaniladigan 补语 *bǔyǔ* termini dastlab mazkur asar doirasida ijod qilingan deyish mumkin. Bugungi kunda 补语 *bǔyǔ* terminiga “fe‘l (yoki fe‘lga xos vazifani bajarib kelgan so‘z) kesim vazifasida kelganda gapda to‘ldiruvchi, ya‘ni 宾语 *bīnyǔ* , bor yoki yo‘qligini qat‘iy nazar, ayrim hollarda semantik jihatdan gap ma‘lum bir vositalar yordamida to‘ldirishga ehtiyoj bo‘ladi, huddi shu kabi sifat (yoki sifat vazifasini bajarib kelgan so‘zlar) ham kesim vazifasida kelganda shungay holat kuzatiladi. Gapda mazmuni to‘ldirish uchun xizmat qiladigon so‘zlar fe‘l kesim yo‘ki predikativ kesim bilan to‘liqlash munosabatida bo‘ladi va gapda ikkinchi darajali bo‘lak vazifasida keladi. Bunday ikkinchi darajali gap bo‘lagiga nisbatan 补语 *bǔyǔ* termini qo‘llaniladi.

⁵⁷王力, 中国语言学史山西: 山西人民出版社, 1981年, 第178页。

有 yǒu 《bor; ega bo‘lmoq》 (ing. *to have*) so‘zidan keyin kelgan ot turkumiga oid so‘zlarni ba‘zan 主语 zhǔyǔ 《ega》, 双宾语 shuāngbīnyǔ 《juft; to‘ldiruvchi》, 包孕复句 bāoyùnfùjù 《murakkab gap》 deb atalishi ham asarni ingliz tili grammatikasiga muvofiq yozilganini ko‘rsatadi. Uning ingliz tili grammatikasi bilan mos kelishi usha davrda asarning muvaffaqiyatli deb tan olinishining asosiy sabablaridan bo‘lgan. Li Tzinsi xitoy tili bo‘yicha puxta bilimga ega bo‘lib, turli joylarda boy material to‘plashga muvaffaq bo‘lgan, aynan shu sabab u yaratgan asar tilshunoslik sohasida yaratilgan asarlar orasida yuqori o‘rinda turgan.

Ma Jiazhong morfologiyani emas, gap tuzilish usullarni o‘rganishni asosiy deb belgilagan bo‘lsa, Li Tzinsining bu borada fikrlari undan-da ortiq. Uning fikricha: agar alohida, kontekstsiz faqat so‘z turkumlariga bo‘linish va shakl o‘zgarishi haqida gap ketadigan bo‘lsa, Yevropa tillarining o‘zi ham turli davlat tillarida turlicha farqlanadi, xitoy tili-ku bundan butunlay yiroq. Shuning uchun so‘z turkumlarining asos sifatida olinishidan voz kechib, gapga asoslangan grammatikani yaratdi. Muallif shunday deydi: "Xitoy tilida so‘zlarni alohida, yakka xolatidan kelib chiqib turkumlarga ajratib bulmaydi, albatta ularning gapdagi o‘rni, vazifasiga qarash kerak. uning qaysi turkumga tegishli ekahligini aniqlash mumkin" Li Szinsining xitoy tilshunosligi rivojiga qo‘shgan eng katta xissasi grammatik tadqiqoti bayxuanani obyekt sifatida olgani bo‘ldi.⁵⁸

2.2 Baihuaga asoslangan ilk grammatik asarlar terminologiyasi

王力 Wangli 《中国语法学初探》 *Zhōngguówénfǎxuéchūtàn* “Xitoy grammatikasi bo‘yicha boshlang‘ich tadqiqotlar” (1936), 《中国语法中的系词》 *Zhōngguówénfǎzhōngdexìcí* “Xitoy tili grammatikasida bog‘lama” (1937) asarlari nashrdan chiqdi. Birinchi asarda Wang Li xitoy tili grammatikasining o‘rganilishi bo‘yicha mulohazalarini bildirib, xitoy tiliga G‘arb tillarining grammatik meyorlarini xitoy tiliga kuchaytirib o‘tkazilishiga qarshi fikrlarini bayon qiladi. Ikkinchi asarda esa muallif tilni diaxon tahlil etadi.

⁵⁸王力, 中国语言学史山西: 山西人民出版社, 1981年, 第181页。

Wang Li grammatika bo'yicha qator asarlar yozgan. Jumladan, 《中国现代汉语》 *Zhōngguóxiàndàihànyǔ* “Xitoyning zamonaviy xitoy tili” (1943), 《中国语法理论》 *Zhōngguóyǔfǎlilùn* “Xitoy grammatikasi nazariyasi” (1944), 《中国语法纲要》 *Zhōngguóyǔfǎgāngyào* “Xitoy grammatikasi asoslari” (1946).

Muallif gaplarni tasniflar ekan, qator terminlarni kiritadi. 叙述句 *xùshùjù* > 叙述 *xùshù* 《habar bermoq; hikoya qilmoq》 + 句 *jù* 《gap》 = 《darak gap》; 描写句 *miáoxiějù* > 描写 *miáoxiě* 《ta'riflamoq, tasvirlamoq》 + 句 *jù* 《gap》 = 《tasvirlo'vchi gap》; 判断句 *pànduànjù* > 判断 *pànduàn* 《baholash; ajrim qilish》 + 句 *jù* 《gap》 = 《kauzativ gaplar》 kabi turlarga ajratadi. Sintaksisdagi o'ziga hos strukturalarni: 能源式 *néngyuánshì* > 能源 *néngyuán* 《hohish-istak》 + 式 *shì* 《shakl》 = 《istak shakli》; 使成式 *shǐchéngshì* > 使成 *shǐchéng* 《tamomlamoq; amalga oshirmoq》 + 式 *shì* 《shakl》 = 《tugal shakl》; 处置式 *chǔzhìshì* > 处置 *chǔzhì* 《joylamoq; hal qilmoq》 + 式 *shì* 《shakl》 = 《yo'nalishni belgilo'vchi shakl》; 被动式 *bèidòngshì* > 被动 *bèidòng* 《majhul》 + 式 *shì* 《shakl》 = 《majhul shakl》; 递系式 *dìxìshì* > 递系 *dìxì* 《ketma-ket bog'lanish(munosabat)》 + 式 *shì* 《shakl》 = 《ketma-ket bog'lanish》; 紧缩式 *jǐnsuōshì* > 紧缩 *jǐnsuō* 《qisqartirmoq; yig'moq》 + 式 *shì* 《shakl》 = 《jamlo'vchi shakl》; Xitoy tili gap bo'laklaridan 补语 *bǔyǔ* kesimga birikib, uning ma'nosini to'ldirib keluvchi bo'lak, 《to'ldiruvchi》 ni 次品补语 *cìpǐnbǔyǔ* > 次品 *cìpǐn* 《ikkinchi darajali》 + 补语 *bǔyǔ* 《to'liqlo'vchi bo'lak》 = 《ikkinchi darajali to'liqlo'vchi》, 末品补语 *mòpǐnbǔyǔ* > 末品 *mòpǐn* 《tugallovchi》 + 补语 *bǔyǔ* 《to'liqlo'vchi》 = 《tugallovchi to'liqlo'vchi bo'lak》 kabi turlarga ajratadi.⁵⁹

Gao Mingkayning mashhur grammatik asarlaridan biri 《汉语语法论》 *Hànyǔyǔfǎlùn* “Xitoy tili grammatika nazariyasi” (1948) bo'lib, kitob o'z ichiga 句型论 *jùxínglùn* 《gap shakli nazariyasi》 deb nomlangan uch bobni o'rtasidagi

⁵⁹ Mustafayeva.S “Xitoy tili Tilshunoslik Terminlari Tizimining Shakllanishi va taraqqiyoti” (2016) 51-bet.

munosabat yoritilib, unga ko‘ra 规定 *guīdìng* 《aniqlash》, 引导 *yǐndǎo* 《boshqaruv》, 对注 *duìzhù* 《zidlov》, 并列 *bìngliè* 《teng bog‘lanish》, 联络 *liánluò* 《bog‘lanish》 kabi olti turga bo‘linadi.

句型论 *Jùxínglùn* gaplar shakliga ko‘ra esa 否定 *fǒudìng* 《inkor》, 询问 *xúnwèn* 《so‘roq》, 疑惑 *yíhuò* 《gumon》, 命令 *mìnglìng* 《buyruq》, 感叹 *gǎntàn* 《his-hayajon; undov》 kabi besh turga bo‘linadi.

Wang Li ko‘plab 双音词 *shuāngyīncí* ikki bo‘g‘inli so‘zlarni so‘z birikmasi deb atab, ularga nisbatan 伪语 *wěiyǔ* > 伪 *wěi* 《o‘ndan bir qism》+ 语 *yǔ* 《til; nutq; so‘z; so‘zlar》 terminini qo‘llaydi. Leksikografik manbalarda 伪语 *wěiyǔ* 词组 *cízǔ* 《so‘z birikmasi》ning eskicha nomi⁶⁰; sintaktik birlik; so‘zlar qo‘shilmasi, so‘z birikmasi deb ta’rif beriladi. Lekin, xitoy tilidagi qator murakkab strukturaga ega so‘zlarning muallif tomonidan so‘z birikmalari safiga kiritilishi muallif yo‘l qo‘ygan kamchiliklardan hisoblanadi.

Ushbu davrda grammatika bo‘yicha yaratilgan adabiyotlarning nomlaridan kelib chiqib, 1944 yil Wang Li muallifligida yaratilgan 《中国语法理论》 *Zhōngguóyǔfǎlilùn* “Xitoy grammatikasi nazariyasi” asariga qadar xitoy tilida 《grammatika》 语法 *yǔfǎ* termini vositasida emas, 文法 *wénfǎ* termini orqali ifodalanganligiga guvoh bo‘lish mumkin.

语法常用术语词汇表

Asosiy grammatik terminlar

- 1 语法 *yǔfǎ* grammatika
- 2 词法 *cífǎ* morfologiya
- 3 句法 *jùfǎ* sintaksis
- 4 语素 (字) *yǔsù* (zì) morfema
- 5 词根 *cígēn* ildiz morfemasi

⁶⁰ 现代汉语词典, -北京: 2007, 第 823 页。

- 6 词缀 *cízhù* àffiks
- 7 前缀 *qiánzhù* ìprefiks
- 8 后缀 (词尾) *hòuzhù* ì (*cíwěi*) suffiks
- 9 派生词词尾 *pàishēngcíwěi* so'z yasovchi suffiks
- 10 形态变化词尾 *xíngtàibiànhuàcíwěi* shakl yasovchi suffiks
- 11 单纯词 *dānchúncí* oddiy so'z
- 12 合成词 *héchéngcí* murakkab so'z
- 13 联合构成式 *liánhéngòuchéngshì* qo'shma struktura
- 14 偏正构成式 *piānzhènggòuchéngshì* atributiv struktura
- 15 动宾构成式 *dòngbīngòuchéngshì* fe'l-obyektli struktura
- 16 主谓构成式 *zhǔwèigòuchéngshì* subyekt-predikat strukturasi
- 17 词类 *cílèi* so'z turkumari
- 18 量词 *liàngcí* klassifikator (hisob so'z)
- 19 实词 *shící* asosiy so'z turkumi
- 20 虚词 *xūcí* yordamchi so'z turkumi
- 21 名词 *míngcí* ot
- 22 数词 *shùcí* son
- 23 形容词 *xíngróngcí* sifat
- 25 动词 *dòngcí* fe'l
- 26 代词 *dàicí* olmosh
- 27 连词 *liáncí* bog'lovchi
- 28 介词 *jiècí* ko'makchi
- 29 词组 (词语) *cízǔ (cíyǔ)* so'z birikmasi
- 30 句子 *jùzi* gap
- 31 句子成分 *jùzichéngfèn* gap bo'lagi
- 32 主语 *zhǔyǔ* ega

- 33 谓语 *wèiyǔ* kesim
- 34 宾语 *bīnyǔ* toldiruvchi
- 35 定语 *dìngyǔ* aniqlovchi
- 36 状语 *zhuàngyǔ* hol
- 37 补语 *bǔyǔ* toldiruvchi
- 38 单 *dān* sodda gap
- 39 复 *fù* murakkab gap
- 40 陈述句 *chénshùjù* darak gap
- 41 疑问句 *yíwènjù* so'roq gap
- 42 感叹句 *gǎntànjù* buyruq gap
- 43 祈使句 *qíshǐjù* undov gap

XULOSA

Ushbu bitiruv malakaviy ishimiz orqali xitoy tili grammatik terminologiyasi bo‘limiga yaqindan kirishga urinib ko‘rdik. Ishimizni ikki bobga bo‘lgan holda tatqiq qildik.

Birinchi bo‘yicha quyidagi xulosalarga keldik. Demak xitoy tili grammatik terminologiyasi shakllanishi va taraqqiyoti to‘liq ravishda o‘rganib bo‘lingan bo‘lib hisoblanmaydi. U shu tariqa murakkabki, to bugungi kungacha ba’zi bir manbalar qaysi davrda qanaqa bo‘lib hisoblanganligi mukammal aniqlashtirilmagan.

Terminologik tadqiqotlar doimo dunyo tilshunosligida dolzarb masalalardan bo‘lib keladi.

Xitoy tili grammatik terminologiyasi: shakllanish va taraqqiyot mavzusida ish olib borilganda xitoy tili grammatikasi tarixi davrlarga bo‘lib olishimiz va har bir davrning xitoy tiliga bo‘lgan ta’sirini ko‘rib chiqqan paytimizda , boshqa grammatikadan tashqari boshqa soha terminologiyasini shakllanishi va taraqqiyotini tadqiqot qilvotgan paytimizda hammamiz usha terminologiyaning davrlariga bo‘lvolishimiz va usha davrlardagi adabiyotni ko‘rib chiqishimiz kerakligi va usha davrdagi mashhur olimlarning asarlarini ko‘rib chiqishimiz kerak bo‘ladi. Har bir tadqiqot qilgan olimning asarlarini ko‘rib chiqib keyin esa tahlil qilishimiz kerak bo‘ladi ushanda tadqiqotimiz ya’ni terminologiya bo‘yicha qilgan tadqiqotimiz mukammal bajariladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”- Toshkent, 2010. B.10
2. Karimov I.A. “Inson, uning huquq va erkinliklari-oliy qadriyat”- Toshkent,: Sharq 2006. B.242
3. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va faravon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. – T., “O‘zbekiston”. 2016. 14-bet

O‘zbek tilidagi adabiyotlar:

4. Saodat Nosirova “Xitoy tili tarixi”,2012 – yil
5. Saboxat.Hashimova, Saodat Nosirova “Xitoy tili Qiyosiy Grammatikasi”,2009-yil
6. Samida Mustafayeva, “Xitoy tili Tilshunoslik terminlari tizimining shakllanishi va taraqqiyoti”,2016-yil
7. Akobirov S va boshqalar. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.-Moskva: Rus tili 1981 y
8. Karimov A.A. Xitoy tilining asosiy grammatik birliklari.-T.,2001
9. “O‘zbekistonda xitoyshunoslik: tarix, hozirgi zamon va kelajak”, Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2012
10. Sultanova L.A. “Xitoy tili leksikologiya”-T.,2015

Rus tilidagi adabiyotlar:

11. Курдюмов В.А курс югтайского языка: теоритическая грамматика. -М, 2006.-С.18.
12. Голелов В.И. Лексикология современного китайского языка. – М., 1984

13. С. Е. Яхонтов «Древнекитайский язык»
14. Никитина Т. Н. Грамматика древнекитайских текстов. Синтаксические структуры: Учебное пособие. Л., 1982.
15. В. В. Иванов. Терминология и заимствования в современном китайском языке.
16. Иванов А.И., Поливанов Е.Д. Грамматика современного китайского языка
17. Кожевников И.Р. Привычные выражения (гуаньюньюй) в современном китайском языке -М., 2002

Xitoy tilidagi adabiyotlar:

18. 黎锦熙，新著国语文法北京商务印书馆 1925
19. 梁爱林从中文咪语学的英译看术语学的研究应用领域//术语标准化与信息技术。北京，2004.Ne4” -第 3-6 页。张恩忠《战火》187 页
20. 陆志韦汉语的构词法，-北京，1964. 158 页。
21. 陆志书北京话单音词词汇，北京，1964 华山：《鸡毛信》
22. 吕叔湘“中国语法要略，-北京，1982。483 老舍：《离婚》60 页
23. 马建忠马氏文通，-北京，1998，457 页。柯蓝“不死的王孝和”
24. 濮之珍，中国语言学史.-北京，1986 503 页。李准“李双双小传”467 页
25. 任泽湘。语言学术语译名的规范化硕士学位论文，2007，30 页。
26. 沙宗元文字学术语规范研%-安徽，2008 “464 页。矛盾“子夜”201 页
27. 沈家焯现代语言学词典.-北京，2002.441 页

28. 孙寰, 术语的功能与术语在使用中的变异性 : 博士论文” -中国黑龙江大学, 2009 200 页。

29. 王力, 中国语言学史山西: 山西人民出版社, 1981 年

30. 马建忠, 马氏文通.-北京: 商务印书馆, 1998

Lug‘atlar:

31. Zamonaviy xitoy tili lug‘ati, 1172 bet

32. 王振本: 《现代汉语惯用语规范词典》民族出版社 2009 年。

33. 施宝义、颀玉江: 《汉语惯用语词典》, 北京联华印刷厂印刷 1985 年。

34. 高歌东、张志清: 《汉语惯用语大辞典》, 天津教育出版社 1995 年。

35. «汉俄辞典» 商务印书馆出版社, 北京 1990 年

36. 李行健《现代汉语惯用语规范词典》, 长春: 长春出版社, 2001:

37. «精选俄汉-汉俄词典» 商务印书馆出版社, 北京 1990 年

38. «现代汉语词典» 第 6 版-北京., 2012 年-页 1210

39. Китайского-русский словарь. Шанхай, 2004.

Elektron lug‘atlar:

40. ABBY Lingvo X3

41. 大 БКРС

Internet sahifalari:

42. www.baidu.com

43. www.google.com.cn

44. www.cnki.com.cn

45. www.guojiayuwei.cn
46. www.studychinese.ru
47. www.daryo.uz